

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Tabiiy fanlar va geografiya fakulteti  
Geografiya va ekologiya asoslari kafedrasи  
Ekologiya yo'nalishi 401-guruh talabasi**

Tojibaeva Barnoning

**Kasb-hunar kollejlarida ekologik ta'lif-tarbiya va uning  
samaradorligini oshirish.**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar:  
N.N.Alimjanov

**Namangan-2015**

**Mavzu: Kasb-hunar kollejlarida ekologik ta’lim-tarbiya va uning samaradorligini oshirish.**

**Reja.**

**Kirish.**

**I-BOB.** Kasb-hunar kollejlarida ekologik ta’lim-tarbiya va uning samaradorligini oshirishning umumiy xususiyatlari.

**1.1.** Pedagogika fani asoschilarining o’quvchilar ekologik madaniyatini shakllantirishdagi o’rni.

**1.2.** Ekologik tarbiya va huquqiy ta’limni olib borish xususiyatlari.

**1.3.** O’zbekistondagi ekologik islohotlarning o’quvchilar ekologik ta’lim-tarbiyasini shakllantirish jarayoni bilan bog’liqligi.

**II- BOB.** O’quvchilar ekologik madaniyatini shakllantirishda ma’naviy ma’rifiy tadbirlarning roli.

**2.2.** O’quvchilar ekologik tarbiyasida ma’naviy tadbirlarning o’rni.

**2.3.** O’quvchilar ekologik tarbiyasi yuksalishida milliy qadriyatlardan foydalanish.

**3.3.** O’quvchilar ekologik madaniyati shakllanishining aqliy tarbiya jarayoni bilan uyg’unligi.

**Xulosa**

**Ilovalar**

**Foydalanilgan adabiyotlar**

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Yer sayyorasida vujudga kelgan ekologik xavfning insoniyat uchun salbiy ta'sirini baholar ekan, quyidagilarni alohida qayd etadi: «XXI asr bo'sag'asida, fan-texnika taraqqiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Dunyoning jug'rofiy-siyosiy tuzilishi o'zgarmoqda. Bunday sharoitda inson tomonidan biosferaga ko'rsatilayotgan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lib qolmoqda»<sup>1</sup>.

Tabiat, atrof-muhitda ro'y berayotgan xavfli ekologik o'zgarishlar tabiiy qonuniyatlarga muvofiq ro'y bersa-da, biroq ko'p jihatdan inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan antropogen omillar ta'sirining natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ekologik muammolarning yuzaga kelishiga sabab – insonlarning tobora oshib borayotgan ehtiyojlari, ularning tabiat va atrof-muhitga nisbatan iste'molchi sifatida munosabatda bo'lislari, yetarli darajada ilmiy va amaliy ekologik bilimlarga ega emasliklari hamda umumiyligida madaniyatining pastligi bilan izohlanadi.

Ekologik muammolar keskinlashgan sharoitda inson hamda tabiat o'rtaсидаги munosabatning yangicha mazmun kasb etishiga erishish, o'quvchilarda atrof-muhitga nisbatan ekologik mas'ullikni qaror toptirish va ekologik madaniyatni shakllantirish o'ta dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Mazkur muammoni bartaraf etish Yer sayyorasidagi hayotning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. SHu sababli, insoniyat oldiga umumbashariy ahamiyatga molik bo'lgan ekologik xavfni bartaraf etish vazifasi qo'yilmoqda. Mazkur muammoning ijobiy hal etilishi, eng avvalo, har bir fuqaroda tabiatga, atrof-muhitga nisbatan ongli, mas'uliyatli munosabat va ekologik madaniyatning shakllanganlik darajasiga bog'liq.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -Toshkent: O'zbekiston, 1997. 114-bet.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** So'nggi yillarda ekologik ta'lismi va tarbiya muammolarini tadqiq etishga qaratilgan ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Xususan, ekologik ta'lismning nazariy asoslari, tamoyillari, shakllari, metodlari va vositalari birmuncha chuqur o'rganilgan. Jumladan, ekologik ta'lismning nazariy asoslari rus olimi, akademik I.D.Zverev, tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarga ekologik ta'lism-tarbiya berish, Markaziy Osiyoda ekologik ta'lism taraqqiyotiga oid muammolar prof. E.O.Turdiqulov, ekologik ta'lismning pedagogik asoslari prof. A.N.Zaxlebniy, biologiyani o'qitishda o'quvchilarga ekologik ta'lism-tarbiya berish muammolari prof. I.T.Suravegina kabi pedagog-olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

SHuningdek, L.Xudoyberdiev, M.Mirboboev va S.Salohiddinov (fizika ta'limi), A.T.Hayitov (geografiya ta'limi), SH.Avazov (ekologik o'lkashunoslik), V.N.Sattorov (mehnat ta'limi), I.Ismatov va B.Qulto'raev (kimyo ta'limi), M.G'.Nishonboeva (biologiya ta'limi), N.O'.Nishonova (adabiy ta'lismi), I.T.Misliboev va N.M.Egamberdieva (kasb-hunar ta'limi), A.Meliboev (pedagogik ta'lismi) ishlarida xususiy fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarga ekologik ta'lism-tarbiya berish mazmuni yoritilgan.

X.A.Rahmatova (sinfdan tashqari ishlar jarayonida ekologik-gigienik tarbiya), SH.Mirzahmetova (boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga qiziqishni shakllantirish), N.SH.Bozorova (talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish), M.M.Aliqulova (tabiatshunoslik darslarida O'rta Osiyo allomalarining ekologiyaga oid qarashlaridan foydalanish) F.U. Jumaeva (kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish, geografiya ta'lumi misolida) lar ekologik ta'lism-tarbiyani tashkil etishning turli jihatlarini tadqiq etganlar.

Ammo, kasb-hunar kollejlarining o'ziga xos jihatlari, shuningdek amaliy geografiya ta'lumi imkoniyatlarini inobatga olgan holda o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish muammosi ilmiy-pedagogik jihatdan to'liq o'rganilmagan. Bu holat kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonini pedagogik nuqtai nazardan asoslangan holda tizimli-majmuaviy o'rganish zaruriyatini yuzaga keltirgan. Ana shu zaruriyatni inobatga

olgan holda mazkur bitiruv malakaviy ish uchun « Kasb-hunar kollejlarida ekologik ta’lim-tarbiya va uning samaradorligini oshirish» mavzusi tanlandi.

**Tadqiqot maqsadi:** kasb-hunar kollejlari o’quvchilarida amaliy geografiya ta’limi jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirish tizimini nazariy jihatdan ishlab chiqish va uni samaradorligini oshirishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:** mavzuga oid ilmiy-pedagogik manbalarni o’rganish va ularda ilgari surilgan nazariy g’oyalarni tahlil qilish asosida hamda amaliy geografiya ta’limi jarayonida kasb-hunar kollejlari o’quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish dolzarb umumpedagogik muammo ekanligini ilmiy-amaliy jihatdan asoslash;

- kasb-hunar kollejlari o’quvchilarida amaliy geografiya ta’limi jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirishning mavjud holatini o’rganish;

- kasb-hunar kollejlari o’quvchilarida amaliy geografiya ta’limi jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirishning samarali shakllari, metodlari va vositalarini belgilash;

- kasb-hunar kollejlari o’quvchilarida ekologik madaniyatning shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlarni ishlab chiqish;

- amaliy geografiya ta’limi jarayonida kasb-hunar kollejlari o’quvchilarining ekologik madaniyatini samarali shakllantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar tayyorlash.

**Tadqiqot ob’ekti:** kasb-hunar kollejlaridagi amaliy geografiya ta’limi jarayoni.

**Tadqiqot predmeti:** kasb-hunar kollejlaridagi amaliy geografiya ta’limi jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirish tizimi va texnologiyalari.

**Tadqiqot metodlari:** tadqiqot mavzusi bo'yicha falsafiy, psixologik-pedagogik va geografiya ta’limi metodikasiga oid adabiyotlarni o’rganish va nazariy tahlil qilish; amaliy geografiya darslari va darsdan tashqari mashg’ulotlarda o’quvchilarda ekologik madaniyatning shakllanish jarayonini kuzatish va tahlil qilish; o’quvchilarning ijodiy ishlarini, o’qituvchilarning ilg’or ish tajribasini o’rganish; amaliy geografiya kursi bo'yicha o’quvchilarda ekologik

madaniyatni shakllantirish mazmuni, tuzilishi va hajmini tahlil qilish; pedagogik tajriba sinov ishlarini o'tkazish; o'quvchilar va o'qituvchilar bilan testlar, interv'yu, suhbat, so'rovlар o'tkazish va kasb-hunar kollejlari hujjatlarini o'rganish; rejalashtirilgan pedagogik vaziyatlarni yaratish; qiyosiy tahlil; tadqiqot natijalariga matematik-statistik ishlov berish va umumlashtirish.

### **Ilmiy yangiligi:**

1. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida amaliy geografiya ta'limi jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirish muammosi umumpedagogik jihatdan maxsus tadqiq etildi.

2. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish mezonlari va ularning asosiy ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

3. Amaliy geografiya ta'limi jarayonida kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish samaradorligini ta'minlovchi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi:** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va ekologik xavfsizlikka oid asarlari; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi, tabiat boyliklariga nisbatan tejamkorlik, mas'uliyatlilik va ulardan oqilona foydalanish haqidagi qonunlari va qarorlari; biosfera va noosfera haqidagi ta'limotlar; SHarq va G'arb mutafakkirlarining tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorligi, inson va tabiat birligi, insonning tabiatga ta'siri va undan foydalanishi va ekologik ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining ekologik ta'lim-tarbiyaga oid o'quv-me'yoriy hujjatlari; o'zbek xalq pedagogikasi; ekologik ma'rifat nazariyasi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotda ilgari surilgan yetakchi ilmiy-nazariy g'oyalar pedagogika fanlari mazmunini boyitadi, kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida ekologik madaniyatini shakllantirishga xizmat

qiladi.

Ishni bajarish jarayonida ishlab chiqilgan va asoslangan ilmiy-amaliy tavsiyalardan kasb-hunar kollejlari amaliyatida ekologik mazmundagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yo'lga qo'yishda, o'quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan amaliy treninglarda, amaliy geografiya ta'limi jarayonida o'quvchilar ekologik madaniyatini samarali shakllantirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalari kasb-hunar kollejlari o'qituvchilarini o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslangan usullari majmui bilan qurollantiradi. SHuningdek, Bitiruv malakaviy ishidagi ayrim materiallardan kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari va pedagog xodimlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash muassasalaridagi nazariy va amaliy mashg'ulotlar jarayonida ham foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, boblar bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa v 60 nomdag'i foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati hamda 2 ta ilovadan iborat bo'lib, asosiy mazmuni 60 betni, umumiy hajmi esa 72 betni tashkil qiladi.

## **I- BOB. Kasb-hunar kollejlarida ekologik ta’lim-tarbiya va uning samaradorligini oshirishning umumiy xususiyatlari.**

### **1.1.Pedagogika fani asoschilarining o’quvchilar ekologik madaniyatini shakllantirishdagi o’rni.**

Pedagogikaning fan sifatida shakllanib borishi ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyat bo’lib, u turli fanlar bilan uyg’un holda qadim-qadim zamonlardan rivojlanib kelgan. Alloh, yeru osmonni, butun borliqni inson uchun yaratib, unga aql gavharini, tafakkur qilish qobiliyatini berdi. O’zining mavjudligi, har bir ishga qodirligini, ilmda tengsizligini, mehr-muruvvatda beqiyosligini bildirdi.

Islomda ham dunyoviy ilmlarning barchasi Qur’oni Karim ta’limoti bilan bog’liq va uyg’un holda berilgan.

Qadimgi Yunonistonda Suqrot, Pifagor, Aristotelъ, Platonlar g’oyaga asoslangan o’zlarining inson kamoloti va tarbiya masalalarining falsafiy negizini yaratgan. Aristotelъ «Iskandarga qilgan nasihat»da (U Iskandar Zulqarnaynning ustozи bo’lgan va bu ham o’z navbatida Aristotelni o’z otasidan ustun qo’yan) insonni eng yuksak fazilati taqvodorlik, iymonli ilmli bo’lishligini ta’kidlagan edi, ya’ni: «Taqvodorlik iymon vositasida kamol topadi. Iymon esa fikru andisha soyasida hosil bo’ladi», degan edi.

Ilmda xosiyat ko’p, chunki u – taraqqiyot kaliti – insonning qalb ko’zidir. Bunda ilm aqldan quvvat olganligi sababli aql ma’naviy haqiqatlari bilan insoniyat jamiyatining dunyoviy ishlarda intizom yaratadi. Bu haqda ulug’ matematik va faylasuf olim Pifagorning quyidagi fikrlari fikrimizning isbotidir. Ular:

- «Donishmandlik nima?

Tartib-intizomlilik. Donishmand bo’lay desang hamma narsani joy-joyiga qo’y. O’tkinchi shuhratdan oqil kishining kundalik ishidagi tartib a’loroq»;

Etuk shaxslarning (olimlar, donishmandlar, faylasuflar, yozuvchilar, shoirlar, qahramonlar, davlat arboblari va shu kabilar) hayoti va faoliyati ulug’ ibrat, tarbiya sabog’idir.

Hozirgi kunda ham ilm-fanning turli sohalari, shuningdek, fan, adabiyot, san’at, falsafa va boshqa sohalarida ijod qilganlarning ismi sha’riflarini yo’qlash,

qilgan ishlaridan foydalanish, insoniyatning og'irini yengil qilganda ularni eslab, yod qilib turilishi nihoyatda ahamiyatlidir.

SHu sababli ham yuqorida ta'kidlaganimizdek, olim-mutafakkirlarimiz olamga mashhur bo'lганlar. Ulardan ayrimlarining fikrlarini keltiramiz. Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiyning «Arifmetika» asari boshlanishidagi quyidagi fikrni keltiramiz: «Rahimli va mehribon tangriga loyiq maqtovlar aytaylik, unga minnatdorchiligidizni bildiraylik va uni ko'klarga ko'tarish bilan maqtovini oshiraylik, unga ibodat qilaylik, toki, u bizni adolat sari boshlab, haqiqat yo'lidan olib borish va bizga 9 ta raqamda iborat hind hisobi haqida bayon etishga qilgan qarorimizga yordam bersin».<sup>2</sup> Ya'ni «Arifmetika oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi «Al jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob»ni taklif qildim, chunki meros tadqim qilishda, vasiyatnomada tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda va shuningdek, yer o'lhash, kanallar o'tkazishda, (amaliy) geometriya va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir».

Abu Ali ibn Sino – u «SHayx ur-rais», ya'ni «Olimlar boshlig'i», «Tabiblar podshohi», nomlariga sazovor bo'lган olim. Uning tarjimai holidan quyidagi fikrni o'qishimiz mumkin: «Agar biror masaladan boshim qotib, qiyosda o'rtacha ta'rifni topa olmasam, jome' masjidiga borardim va namoz o'qib, yaratguvchiga yolborardim, natijada qorong'u narsalar menga oydinlashar, mushkullar osonlashar edi», deb yozgan edi.

Abu Ali ibn Sino o'zining quyidagi asarlari bo'yicha ma'rifatimiz, madaniyatimiz va ma'naviyatimiz tarixiga katta hissa qo'shdi:

• falsafa, tibbiyot va tabiatshunoslik sohalariga oid «Qonun fit tib» («Tib ilmlari qonuni»); «Kitob ash shifo» («Jonne saqlash kitobi»); «Kitob an-najot» («Najot kitobi»); «Kitob an-insof» («Insof kitobi») va shu kabi asarlar yaratdi; axloqqa va ma'rifatga oid «Risola fi ilm al-axloq» («Axloqqa oid risola»); «Risola fi fazilat an-nafs» («Nafsi pokiza tutish haqida risola»); «Risola fi al-ahd»

---

<sup>2</sup> Muhammad Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. – T.: «Fan», 1983. – B. 59.

(«Burch haqida risola»); «Kitob an-insof» («Adolat haqida kitob») va shunga o’xhash ta’lim-tarbiyaga oid boy ma’naviy merosni kelajak avlodga qoldirdi.

Yoshlarda, shu jumladan o’quvchilar va talabalarda ekologik tushunchalarni shakllantirishda Abu Ali ibn Sino asarlarining ahamiyati katta. Alloma tomonidan yaratilgan asarlarning soni 450 dan ortiq bo’lib, ularning 80 dan ortig’i tabiat va insonning unga bo’lgan munosabati masalasiga bag’ishlangan<sup>3</sup>.

Abu Ali ibn Sinoning tog’larning paydo bo’lishi, yer yuzasidagi tabiiy jarayonlarning davrlar o’tishi bilan o’zgarishiga oid g’oyalari pedagogika fanining rivoji uchun muhim ahamiyatga ega bo’ldi.

Tashqi muhitning odamlar tanasiga ko’rsatadigan ta’siri, ular sog’ligini saqlash, parhez, shaxsiy gigiena to’g’risidagi fikrlar alloma tomonidan yaratilgan “Tib qonunlari” asarining bosh g’oyalari sanaladi. Allomaning inson tanasida kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillardan biri suv, yer va havoda mo’tadillikning buzilishi bilan bog’liqligi, yashash joylarining torligi, ozoda bo’lmasligi, yuqumli ( chechak, vabo isitmasi, yiring, toshma kabi) kasalliklarning tez tarqalishi uchun qulay sharoit yaratishi, yuqumli kasalliklarning aholi zinch joylashgan joylarda havo va boshqa omillar orqali yuqishiga doir o’gitlari bugungi kunda ham muhim ijtimoiy-tibbiy ahamiyatga egadir. Mutafakkirning “Agar havoda chang va g’ubor bo’lmanida edi, inson ming yil umr ko’rgan bo’lar edi” degan mashhur iborasi esa o’quvchilarda havoni ifloslantirmaslik, atrof-muhitni ozoda saqlash va tabiatga ziyon yetkazmaslik ko’nikma va malakalariga ega bo’lishlariga yordam beradi.

Olimning fikricha, inson tabiatdan moddiy hayot manbalarini o’zlashtiribgina qolmay, balki ruhiy va jismoniy quvvat ham oladi. SHuningdek, u ayrim kasalliklarni davolashda tabiiy manbalar, xususan, qum, tuproq, suv va o’simliklardan foydalanish zarurligini uqtirib, zarur tavsiyalar beradi.

---

<sup>3</sup>Qarang:Xayrullaev M.M. Ma’naviyat yulduzlari. – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2001. - 406 b.

Abu Ali ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" asarida bir qator kasalliklarni davolash yo'llarini ko'rsatibgina qolmay, balki jismoniy tarbiyaning salomatlikni muhofaza qilishdagi ahamiyatini ham asoslab bergen<sup>4</sup>.

Alloma yoshlarda sog'liqni saqlashning eng muhim omillari sifatida quyidagilarni e'tirof etgan: 1) badan tarbiya; 2) to'g'ri ovqatlanish va dam olish; 3) yetarli va samarali bo'lган uyqu .

U badan tarbiyani kishining yoshiga, salomatligiga va kasalligiga qarab, turli usullarda o'tkazish kerakligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, bolalik, o'smirlik, yigitlik va qarilik davrida kishi jismoniy mashg'ulotlarga turlicha munosabatda bo'lish kerak. Abu Ali ibn Sino: " Jismoniy mashq kishini ketma-ket chuqr nafas olishiga majbur qiladigan ixtiyoriy harakat"<sup>5</sup> ekanligini qayd etgan holda muntazam ravishda badan tarbiya bilan shug'ullangan kishiga dard yaqin yo'lamasligi, tabibga ham, dori-darmonga ham muhtojlik sezmasligini aytib o'tadi.

Abu Ali ibn Sino jismoniy tarbiyaning turli ko'rinishlari va ulardan qanday foydalanish kerakligini ham ko'rsatib bergen. U jismoniy mashqlarni quyidagi guruahlarga bo'ladi: "Kichigi va kattasi, juda kuchli va kuchsiz, tez va sust yoki tez va shiddatli harakatlardan iborat yoxud sust turi". Alloma bolalarning badan tarbiya bilan shug'ullanishlari uchun qulay bo'lган vaqtlnarni ham tavsiflagan. CHunonchi, badan tarbiya uchun bahor faslida tushga yaqin vaqt qulay bo'lib, mashq o'rtacha haroratli uyda bajarilishi, yozda ertalab, qishda esa kechqurun jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish maqsadga muvofiqdir. Mutafakkirming fikricha, badan tarbiyasi bilan shug'ullanishda yana quyidagi shartlarga ham rioya qilish zarur: qishda uyni o'rtacha haroratda isitish, mashqlarni ovqat hazm bo'lgach amalga oshirish tibbiy jihatdan to'g'ri sanaladi.

Alloma bolalar tomonidan badan tarbiya bajarilayotgan quyidagi uch holatga alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlaydi:

---

<sup>4</sup> Qarang: Sino, Abu Ali ibn. Tib qonunlari. I jildlik saylanma /Tuzuvchilar: U.Karimov, X.Xikmatullaev. - T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1996. – 542 b.

<sup>5</sup> Qarang: Sino, Abu Ali ibn. Tib qonunlari. III jildlik saylanma /Tuzuvchilar: U.Karimov, X.Xikmatullaev. - T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1996. – 418 b.

1. Terining rangiga - agar u yaxshilana borsa, mashqlarni davom ettirish mumkin, agar ter chiqa boshlasa, harakatni to'xtatish lozim.
2. Mashqlarning yengilligiga - jismoniy mashg'ulot davomida kishi tanasi yengil bo'lib tursa mashqni davom ettirish mumkin.
3. A'zolarning holatiga – agar ularning ko'pchishi davom etsa, mashqni davom ettirish mumkin, agar ko'rsatilgan belgilar yo'qola borsa, mashqni darhol to'xtatish kerak.

Ulug' alloma Abu Ali ibn Sinoning jismoniy tarbiyani samarali va uzlusiz tashkil etishga oid tavsiyalari bilan o'quvchilar, shu jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tanishtirish va ularda jismoniy faollik, jismoniy tarbiya ko'nikmalarini shakllantirish ularning har tomonlama yetuk bo'lib voyaga yetishlariga yordam beradi.

Abu Ali Ibn Sinoning atrof muhitning inson organizmiga ko'rsatadigan ta'sirlari va inson salomatligini saqlashga oid qarashlaridan pedagogikada foydalanish amaliy ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Abu Ali ibn Sinoning shaxsiy gigienaning ahamiyati borasidagi qarashlari o'quvchilar ta'lim tarbiyasida samara beradi. Alloma ko'mir gazining zararli xususiyatini ilmiy jihatdan tavsiflagan: "Ko'mir hidi, miqdori bilan emas zaharlilik quvvati hisobiga miyani qizdiradi, quritadi hamda uning quvvatini zaiflashtiradi", - deb ta'kidlagan.

Buyuk davlat arbobi va ilm-fan homiysi, olim va o'z davri ta'lim tizimining bosh islohotchisi, ma'rifatparvar inson, dunyoda birinchi hisoblash markazining tashkilotchisi Mirzo Ulug'bek hayoti va faoliyatida ham dunyoviy ilmlar o'qitilishiga katta e'tibor berilgan.

Ulug'bek maktab va madrasalarda berilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish maqsadida mudarrislar, talabalar bilan rasadxonada amaliy mashg'ulotlar o'tkazishni talab etib, bunga o'zi rahbarlik qilgan.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning ta'lim-tarbiya sohasida o'sha zamonlarda, hattoki hozirda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan fikrlari pedagogika fani metodologik asoslarini tavsiflashda nihoyatda muhimdir. Ya'ni, u ta'lim berish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish lozim, deb ta'kidlaydi:

- ta’lim oluvchini zeriktirmaslik kerak;
- talabalarga bilim berishda bir xil narsa va ma’lumotlarni doimo bir xil usulda o’rgatavermaslik kerak;
- uzviylik va izchillik asosida mavzularni qiziqarli qilib o’rgatish yo’llarini kashf etib borish kerak;
- ta’lim berishda mashg’ulotlarni ko’rgazmali qilib borishga erishish kerak;
- talabalarning bilim olishida ularning ilmlarni egallashiga tushunib harakat qilishini, ya’ni ijodiy intilishiga va qiziqishiga e’tibor doimo ta’lim beruvchining diqqat markazida bo’lmog’i lozim.

Abu Rayhon Beruniy ta’lim-tarbiya jarayonida muhitning ahamiyatiga alohida e’tibor bergen va u barcha illatlarning asosini **bilimsizlik** tashkil etadi, degan fikrda qat’iy turgan.

Beruniy inson kamolotidagi omillarni quyidagi asosiy qismlarga bo’ladi:

- ma’rifat va ta’lim beruvchining ilm-ma’rifatli bo’lishi;
- ilm-fanni e’tirof qiluvchi muhit;
- ijtimoiy muhit va to’g’ri tarbiya;
- ta’lim beruvchining yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo’lish.

Bular bugungi pedagogikaning metodologik asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika fani metodologiyasining yaratilishida qomusiy olimlar bilan birga chex olimi Yan Amos Komenskiy, shveytsariyalik pedagog Iogann Genrix Pestalotsi, nemis pedagogi Adolf Disterverg, rus pedagogi K.D.Ushinskiylar katta xissa qo’shganlar.

Hozirgi kunda barkamol shaxs tushunchasi fuqarolik jamiyatini qurish va «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratish» uchun fidoiy farzand bo’lish tushunchalari bilan bog’lanib ketdi. Biz endi alohida-alohida yetuk shaxslargina emas, balki barkamol avlodni shakllantirishimiz va tarbiyalashimiz lozim. Ana shundagina barkamol avlodli, intellektual salohiyatli shaxslar jamiyatiga ega bo’lamiz. Bu borada muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov

«Turkiston» gazetasi muhbiri bilan qilgan suhbatida quyidagi qimmatli va ko'rsatmali fikrni aytganlar: «Endi oldimizga nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiluvchi yangi vazifa turibdi. Bu vazifa erkin fuqarolik jamiyatining ma'naviyatini shakllantirish, boshqacha aytganda, ozod, o'z haq-huquqlarini yaxshi taniydigan, boqimandalikning har qanday ko'rinishlarini o'zi uchun or deb biladigan, o'z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan komil insonni tarbiyalashdan iboratdir».⁶

Demak, hozirda pedagogika fanining metodologik asosi tadqiqot metodlari, maqsad va vazifalari, yangi yo'nalishlari, ta'lif va tarbiya mazmuni, shakl va metodlari hamda boshqa bir qator muammolar yangicha yondashuv, ya'ni milliy mafkura asosida yaratilishini taqozo etmoqda. SHuningdek, Prezitendimiz I.A.Karimov o'z risola, nutq va suhbatlarida ilgari surgan fikrlar, g'oyalar, ana shu fikr va qarashlar asosida yaratilgan «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari» ham pedagogika fanining metodologik asosi sanaladi.

SHu bilan birga pedagogika fanining ham o'z ildizlari, sarchashmalari mavjud. Ma'lumki, ta'lif-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz moziyda ham bosh masala inson, uni barkamol etib tarbiyalash bo'lganligining guvohi bo'lamic. Eng qadimgi manbalardan boshlab, keyinchalik paydo bo'lgan ta'limiylar qurashchalar asarlarda ham amaliy masalalar tahlil etilganki, uning asosida inson shaxsini ma'naviy-axloqiy shakllantirish muammosi markaziy muammo bo'lgan. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan boshlab, Kaykovusning «Qobusnom», Ahmud Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Sa'diyning «Guliston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» va boshqa juda ko'p didaktik asarlarning har birini bir pedagogik darslik, desak yanglishmagan bo'lamic. Biz ana shu asarlarga tayangan holda tadqiqot ishlarini olib borgan taqdirdagina pedagogikaning ilmiy asoslarini boyitgan bo'lamic.

---

⁶ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – 7 tom. – Toshkent: O'zbekiston, - B. 3-4.

Prezidentimiz I.A.Karimov bu borada shunday degan edi: «O’zbekistonning yangilash va rivojlantirishning o’z yo’li to’rtta asosiy negizga asoslanadi. Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o’z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik».<sup>7</sup>

O’zbekistonda mustaqillikni saqlab qolish va uni mustahkamlashda pedagogika fani va uning metodologik asoslariga bevosita bog’langan holda, har bir pedagogik masalaga ijodiy, rivojlantiruvchi nuqtai nazaridan yondashishi zarurdir. Ana shunda mazmunan yangilanayotgan zamon talablari asosida shakllanayotgan pedagogika – inson ruhiyatiga ta’sir etuvchi zamonaviy metodlar va texnologiyalar hosil bo’lgandagina haqiqiy milliy va zamonaviy tarbiyashunoslik faniga aylanishi muqarrar.

Bu borada Respublikamiz Prezidentining quyidagi vazifaviy (ko’rsatmali) fikri ahamiyatlidir: «O’z-o’zidan ayonki, yangi davlat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo’lidagi murakkab va keng ko’lamli vazifalarni hal etishga qodir bo’lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi muhim printsipial va hal qiluvchi ahamiyatga ega».<sup>8</sup>

## **1.2.Ekologik tarbiya va huquqiy ta’limni olib borish xususiyatlari.**

Bugungi kunda ekologik inqirozning oldini olishda aholining, ayniqsa, o’sib kelayotgan yosh avlodning ekologik-huquqiy ta’lim-tarbiyasi, madaniyati va ma’naviyati hal qiluvchi omillardan biri sanaladi.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida “Ota-onalar o’z farzandlari voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar”, deb ko’rsatilishi har bir oilada ekologik-huquqiy ta’lim-tarbiya yaxshi yo’lga

---

<sup>7</sup> Karimov I.A. O’zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat mafkura. I tom. – Toshkent: O’zbekiston, 1996. – B. 76.

<sup>8</sup> Karimov I.A. O’zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo’l // «Xalq so’zi» gazetasi. – T.: 2007 (13.08.07y.). – 2 bet.

qo'yilishini ham taqozo qiladi. Chunki dastlabki ta'lim va tarbiyani olib borish jarayoni oilada vujudga keladi.

Oilada huquqiy ekologik ta'lim quyidagi talablarni o'z ichiga oladi:

- bolalarni tabiat go'zalliklaridan estetik zavq olish ruhida tarbiyalash;
- ota-onaning g'amxo'rligi va bevosita harakati ostida bolalarning huquqiy-ekologik madaniyatini oshirish;
- tabiat va jamiyat o'rtasidagi huquqiy munosabat hamda insonning tabiatga ta'siri masalasini;
- inson tabiatning ongli bir mahsuli ekanligi va barcha qonunlarga amal qilishi lozimligini;
- barcha tabiat boyliklari bo'lgan yer, yer osti boyliklari, suv, hayvonot va o'simliklar dunyosi, o'rmon va havodan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza etish zarurligini;
- sodir etilgan yoki sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqiy-ekologik huquqbazarliklarga qarshi kurashish hamda ularning oldini olish shart ekanligini;

«Oila ekologiya»si, «Inson ekologiya»si, «Yoshlar ekologiya»si nima ekanligini keng tushuntirish, maqsadga muvofiqdir.

Yangicha ekologik-huquqiy tafakkumi, ma'naviyat va madaniyatni shakllantirishda Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 13 iyundagi "Yoshlarning huquqiy ta'limini takomillashtirishning Kompleks dasturi to'g'risida"gi qarori, Prezidentimizning 1997 yil 25 iyundagi "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida"gi Farmoni dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga ekologik-huquqiy ta'lim-tarbiya berish maqsadida Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan hamkorlikda "Respublikada ekologik ta'limni rivojlantirish va ekolog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash

hamda malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish istiqbollarri” Dasturi va Kontseptsiyasi ishlab chiqilgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa iqtisodiyot komissiyasining “Barqaror rivojlanish uchun ta’lim bo'yicha Strategiya” hamda milliy dastur asosida O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi aholi keng qatlaming ekologik ta'limi, madaniyatini rivojlantirish bo'yicha hamkorlik qilmoqda, o'z tarkibiy bo'linmalari xodimlarining malakasini oshirishni tashkillashtirmoqda hamda boshqa idora va tashkilotlarga ekologik ta'lim masalasi bo'yicha metodik va moddiy yordam ko'rsatmoqda.

Ekologik-huquqiy ta'lim-tarbiya masalasi bo'yicha Toshkent davlat yuridik instituti, O'zbekiston Milliy universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent iqtisodiyot universiteti, Toshkent moliya instituti, Toshkent davlat pedagogika universiteti va boshqa oliy o'quv yurtlari tomonidan o'tkazilayotgan qator tadbirlar va chop etilayotgan ilmiy-ommabop kitoblar hamda darsliklar, ilmiy-amaliy konferentsiyalar alohida e'tirofga loyiq.

Ta'kidlash joizki, oilada ekologik-huquqiy ta'lim-tarbiya olib borilishi yoshlarni atrof tabiiy muhit va uning boyliklarini sevishga, muhofazalash hamda bundan oqilona foydalanishdagi dastlabki ekologik-huquqiy ongini, taffakurini hamda tushunchalarini shakllantirishga yordam beradi.

Maktabgacha bo'lgan muassasalarda esa bolalarimiz o'z qilmish oqibatlari yaxshilik va yomonlikka yo'naltirilganligini tushuna oladilar. SHuning uchun ham tarbiyachilar bu yoshdagi bolalarga nisbatan ona tabiatga nisbatan yaxshi xislatlarni namoyon etishga yo'naltirishi lozim.

Maktab davrida yoshlarimiz “tabiat, jamiyat va inson” o'rtasidagi mutanosiblik holatini aniq tushunadilar. Ular 1-9 sinflarda olgan boshqa soha bilimlarini ekologik-huquqiy ta'lim-tarbiya bilan bog'lab olib boradilar.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida olib boriladigan ekologik-huquqiy ta'lim-tarbiya jarayoni yoshlar hayotida asosiy hal qiluvchi bosqichlardan biridir.

Bu davrda yoshlarimiz “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi, “Suv va suvdan foydalanish to'g'risida”gi, “Atmosfera havosini muhofaza qilish

to'g'risida"gi, "O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi, "O'rmon to'g'risida"gi va "CHiqindilar to'g'risida"gi qonunlar hamda Yer kodeksining mohiyati va mazmunini kengroq o'rganadilar. SHuningdek, yoshlarimiz bu davrda "Ekoliya huquqi" va "Qishloq xo'jalik huquqi" fanlarini ham belgilangan soat hajmida o'qiydilar. Bu davrda talaba yoshlarimiz olgan bilimlarini amaliyot bilan bog'lash jarayoniga ham ega bo'ladilar.

Oliy o'quv muassasalarida yoshlarimiz bevosita aniq yo'nalish va mutaxassisliklarga ega bo'lib, ekologik-huquqiy bilim saviyalarini o'z sohalari asosida o'zlashtiradilar. Bugungi kunda respublikamizda biolog-ekolog, yurist-ekolog, pedagog-ekolog, ekolog-texnolog, ekolog-muhandis, ekolog-ximik, ekolog-auditor va boshqa mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Hozirgi ekologik muammolar keskinlashib borayotgan sharoitda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiat boyliklarini kelajak avlodga qoldirish, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish, bu maqsadda qonunchilikni takomillashtirib borish, ekologik-huquqiy ta'lim-tarbiyani oilada yanada kuchaytirish ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi. Bu esa, mamlakatimizdagi mavjud tabiiy boyliklarni kelajak avlod uchun bus-butun qoldirishga, ularni asrab-avaylashga, e'zozlashga hamda ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, oilada ana shunday tadbirlarni olib borish yoshlarimizda huquqiy-ekologik tafakkurning yangi zamonaviy holatini shakllantirishga, ekologik-huquqiy ma'naviyat, madaniyat va tafakkur asoslarini barpo etishga katta hissa qo'shadi.

### **1.3. O'zbekistondagi ekologik islohotlarning o'quvchilar ekologik ta'lim-tarbiyasini shakllantirish jarayoni bilan bog'liqligi.**

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy, madaniy hayotida talaba yoshlar muhim o'rin egallaydi. Talaba yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish, ularning

bugungi kun talablariga javob beradigan darajada, yuqori malakali pedagog professor o'qituvchilar yordamida zamonaviy, dunyoviy bilim olishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan, hayotga tatbiq etilib, dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirofiga sazovor bo'lgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, "Ta'lif to'g'risidagi" qonunning amaliyotdagi ijrosi talaba yoshlarimizning ekologik ta'lif, tarbiyasida, ularda ekologik madaniyatni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning talaba yoshlar kamolotini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli Davlat siyosati tufayli yurtimizda talaba yoshlar ekologik tarbiyasi va ekologik madaniyatini shakllantirishning xuquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy asosi yaratilgan. Davlatimiz rahbarining taklifi bilan 2010 yil "Barkamol avlod yili", 2011 yilning "Kichik biznes va xusisiy tadbirkorlik yili" deb atalishi talaba yoshlarimizning har tomonloma ijtimoiy, iqtisodiy hayotda o'z o'rinalarini egallashlari uchun barcha imkoniyatlar vujudga keltirilganligidan darak beradi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlagalaridek, "vatanimizning kelajagi, xalqimizning jahon hamjamiyatidagi obro' - e'tibori avvalombor farzandlarimizning unib - o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak".

Talaba yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish jarayoning muhimligi, dolzarbligi va amaliy ahamiyati mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy iqtisodiy islohatlar, jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiyalash masalasi bilan chambarchas bog'liqligidadir, chunki mamlaktimizda yoshlarning aholi tarkibidagi salmog'i 64,0% tashkil qiladi. SHu jihatdan olib qarasak, ularning bilim olishlari, tarbiyasi, kasbiy tayyorgarligi masalalari mamlakatimizdagi demokratik huquqiy davlat qurilishi, fuqoralik jamiyatini shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda mustaqillik yillarda Oliy majlis tomonidan ekologiya bo'yicha 30 dan ortiq qonunlar va 250 dan ortiq Direktiv hujjatlar qabul qilindi. Ushbu umumdavlat ahamiyatiga molik ekologik

yo'nalishdagi hujjatlar mazmuni aholi orasida, talaba yoshlarimizga tizimli ta'lif tarbiya vositalari orqali tushintirilmoqda.

Buning yorqin tasdig'i sifatida O'zbekistonda "Ekologik harakat"ning vujudga kelganligi va ushbu jamoat tashkilotining bo'g'inlarining viloyatlar, tumanlarda tashkil etilganligidir. SHuningdek ekologik harakat vakillaridan 15 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga saylanganligi mamlakatimizda ekologik vaziyatini yanada yaxshilashga va talaba yoshlarning ya'ni bo'lajak mutaxasislarning ekologik madaniyatini shakllantirishga berilayotgan e'tibordan dalolatdir. Ta'kidlash lozimki, oliy ma'lumotli mutaxasislarning ijtimoiy faolligi ekologik muommalarining hal bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Akademik litsey, kasb hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlaridagi ta'lif tarbiya ishlarining takomillashtirilayotganligi natijasida talaba yoshlarga hozirgi davr ekologik vaziyatning muhim muomalari va ularning yechimiga doir masalalar malakali mutaxasislar tomonidan yoshlar ongiga singdirilayotganligi talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim omilidir.

SHuningdek mamlakat ijtimoiy iqtisodiy hayotini modernizatsiyalash sharoitida Akademik litsey, kasb hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida ta'lif olayotgan talaba yoshlarimiz ekologik vaziyat va atrof muhitni asrash, yoki tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalarining muhimligi bilan yuzma yuz uchrashmoqda. Ular tafakkuriga ekologik madaniyatning muhim xususiyatlari, mazmuni ilmiy metodik, yangi pedagogik texnologiyalar va zamonaviy usullar bilan singdirilmoqda. Ushbu faoliyatga ilmiy xodimlar, mohir pedagoglar, jamoat tashkilotlarining shu jumladan yoshlar tashkilotlarining vakillari jalb qilingan. Natijada globallashuv davrida yashayotgan va mehnat qilayotgan yoshlar inson hayoti, faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan tabiat va ijtimoiy muhitning o'zaro aloqadorligini chuqur anglamoqda. Tadqiqotlar natijalari dalolat bermoqdaki talabalar mintaqaviy va hududiy ekologik muommalarining kelib chiqishining ob'ektiv va sub'ektiv sabablarini tushunmoqdalar.

Kasb-hunar kollejlarida ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilishga oid o'quv fanlari umumkasbiy integrativ kurs sifatida mazmunan egallanayotgan kasb (mutaxassislik) va fanlararo nuqtai nazaridan o'rganiladi (ilovadagi 1-rasm).

Jumaeva U.F olib borgan tadqiqot jarayonida ekopedagog olimlar E.Turdiqulov, SH.Avazov, V.Sattorov, I.Ismatov va boshqalarning ekologik madaniyat va uning tarkibiy tuzilmasi borasidagi qarashlarini nazariy va metodologik asos sifatida qabul qilgan holda o'ziga xos yondashuvni amalgaloshirgan. Xususan, ishda zamonaviy psixologik-pedagogik ta'limotlar va tadqiqotlarga tayanilgan holda kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida amaliy geografiya ta'limi jarayonida ekologik bilim, ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish orqali ularda ekologik madaniyatni shakllantirishning nazariy modeli ishlab chiqilgan, uning tuzilishi turli jihatdan asoslab berildi (ilovadagi 2-rasm). Jumladan, o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni bir-birini taqozo qiluvchi, bir-biri bilan uzviy bog'langan besh bosqichdan iborat ekanligi aniqlangan.

SHuningdek, o'quvchilarda ekologik madaniyatning shakllanganlik darajasi va o'qituvchilarning bu boradagi layoqatini aniqlash maqsadida ular bilan suhbat, munozara, testlar o'tkazilib, darslar va darsdan tashqari faoliyat turlari tadqiqot predmeti nuqtai nazaridan kuzatib borilgan.

Mamlakatimiz hududlarida tabiiy resurslardan unumli foydalanish masalalarining yechimida, atmosfera havosning tozaligini saqlash, mineral xom ashyo zahiralarimizning vatanimiz buguni va kelajagi uchun xizmat qilishida jonkuyarlik ishlarini amalgaloshirishda talaba yoshlarning o'rni muhimdir. Hozirgi davrda ekologik holatni vujudga keltiruvchi asosiy omillardan biri mavjud mineral xom ashyo resurslari, shu jumladan atmosfera havosi, gaz, neft, suv, yer resurslaridan tejamli foydalanishni tashkil etishdan iborat.

Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning ahamiyati faqat uning tarbiyaviy tomonida emas balki, yurtimizning iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyoti va yuksalishi bilan chambarchas bog'liqligidadir. Ta'kidlash lozimki, globallashuv jarayonida, davlatlar orasida iqtisodiy, madaniy aloqalar kengayib borayotgan

bugungi davrda O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati, shu jumladan Markaziy Osiyodagi tutgan o'rni, obro'si muttasil oshib bormoqda. Bunday imkoniyatlarning qo'lga kiritilishida talaba yoshlarimizning ham bevosita hissasi bor. Mamlakat halqaro nufuzining oshib borayotganligi umumbashariy, mintaqaviy, hududiy ekologik muaommalarining yechimini topish uchun urunishlarida, ushbu sohada amalga oshirayotgan tadbirlarida, ekologik muhitni sog'lomlashtirish uchun bajarayotgan amaliy ishlarda o'z ifodasini topmoqda. Amalga oshirayotgan tadbirlarida, ekologik muhitni sog'lomlashtirish uchun bajarayotgan amaliy ishlari, global, mintaqaviy, hududiy ekologik tangliklarni bartaraf etish uchun davlat byudjetidan ajratayotgan katta miqdordagi mablag'larida vv ushbu mablag'larning mintaqamizdagi mavjud ekologik muommolarni bartaraf etishda ham namoyon bo'layapti. Ta'kidlash lozimki, yurtimizdagi ekologik muhitning dolzarb masalalarini talabalar tomonidan ilmiy asosda o'rganish, ekologik masalalar yechimiga qaratilgan loyihamar tuzish, ilmiy izlanishlar olib borish uchun xalqaro hamjamiyatga mansub tashkilotlar bilan hamkorlik keng yo'lga qo'yildi.

Ayniqsa talaba yoshlarimizning atrof muhit, ekologik muvozonatni saqlash borasidagi faoliyati, ma'lum hududlarda, zarur hollarda ekologik vaziyatni tiklash ishlarida ishtiroklarida xam o'z aksini topayapti. O'zbekiston yoshlarining bu sohadagi faoliyatining xuquqiy asosi mustaqillik yillarida yaratildi. O'zbekiston Respublikasidning "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 21 maydagi "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummiliy dasturi", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 20 oktyabridagi 469 sonli qaroriga muvofiq "1999 - 2005 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha harakatlar dasturi" amalga oshirildi.

Mustaqillik sharofati tufayli biz o'z hududlarimizda ekologik muvozonatini saqlash uchun mustaqil harakat dasturlarini yaratish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Mamlakatimizda O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo’mitasi talaba yoshlarimiz orasida uzliksiz ekologik ta’lim, tarbiya tizimini yaratish borasida tizimli asosdagi ishlarni amalga oshirmoqda. Natijada Halq ta’lim vazirligi va Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirliklarining qarori bilan “Ekologik ta’lim davlat standarti” va “Uzliksiz ekologik ta’lim kontseptsiyasi” ishlab chiqildi va ta’lim tarbiya amaliyotiga kiritildi. Ekologik ta’lim tarbiya bo'yicha seminarlar tashkil qilinmoqda, talabalarga mo'ljallangan ekologik ta’limni tashkil etish uchun mutaxasislar tomonidan tayyorlangan tavsiyanomalar yaratildi. Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ekologik ta’lim yo’nalishidagi darsliklar, o’quv qo’llanmalari, tavsiyalar chop etildi. Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi mutaxasislari tomonidan tayyorlangan o’quv dasturlari, o’quv qo’llanmalar o’quv yurtlariga etkazildi. Talaba yoshlarimizning ekologik madaniyatini shakllantirishda muhim o’ringa ega bo’lgan “Ekoliya”, va “Atrof muhitni muhofaza qilish” fanlari oliy o’quv yurtlari, akademik litseylar, kasb hunar kollejlarida o’qitilmoqda. Mamlakatimizda ekolog mutaxasislar tayyorlash masalasi tubdan yangilandi. SHu jumladan Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universitetida iqtisodchi ekologlar tayyorlash yo’lga qo’yildi.

Talaba yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish va ular orasida ekologik ta’lim va tarbiya ishini tashkil etish, uni yanada mukammallashtirish, uni davrimiz talablari asosida tashkil etishda O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo’mitasi huzurida ish olib borayotgan axborot markazining ishini alohida ta’kidlash lozim. Ushbu qo’mitaning “Ommaviy axborot vositalari bilan xamkorlikda ishlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar” dasturi amaliyotga joriy etildi, qo’mitaning say’i harakati bilan “Ekoliya xabarnomasi” jurnali nashr etilmoqda. Har yili o’tkaziladigan “Toza havo” tadbiri-ning 2007 yilgi natijasiga kira 50 ta telekonsersativ, 562 radioeshittirish, respublika va viloyatlar gazetalarida 121 ta maqola e’lon qilindi. Muntazam suratda internet sahifalari orqali ekologianing dolzarb masalalari, atrof muhitni saqlash bo'yicha amaliy tavsiyalar talaba yoshlarimizga tushintirilmoqda, ularda ekologik tushuncha

va ong, ekologik madaniyatning shakllanishi bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berilmoqda.

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan ijtimoiy iqtisodiy islohatlarning amalga oshishida yoshlar, shu jumladan talabalar muhim o'rinni egallaydi. SHu munosobat bilan ularning ekologik tarbiyasiga ta'lim tarbiya tizimida alohida e'tibor berilmoqda. Fuqoralik jamiyatini shakllantirish jarayonida, talabalar ekologik tarbiyasi masalalari yechimi ta'lim muassasalari mutassadilari va jamoat tashkilotlari vakillarining faol ishtirok etishini taqoza qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "shu munosobat bilan bugungi kunda ekologik yo'nalishdagi 100 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotni birlashtirgan O'zbekiston Ekologik harakatidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar oldida katta va mas'ulyatliz vazifalar turibdi".<sup>9</sup>

O'zbekiston ekologik harakati akademik litsey, kasb hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari talabalarining ekologik tarbiyasi jarayonida keng qamrovli hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Ekologik harakat Markaziy qo'mitasi huzuridagi "Aholining ekologik madaniyatini oshirish, ekologik madaniyat va nodavlat notijorat tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi guruh" a'zolari talabalarning ekologik tarbiyasiga muhim masala sifatida e'tibor qilmoqda. SHu jumladan yoshlarnig ekologik madaniyatini oshirish, ekologik bilimlarni ommabobblashtirish bo'yicha ish olib borish, "Uzluksiz ekologik ta'lim bo'yicha Davlat standartini", "Uzluksiz ekologik ta'lim bo'yicha Kontseptsiyalarni", uzluksiz ekologik ta'lim-tarbiya tizimini ishlab chiqishda va takomillashtirishda tashkilotlararo komissiya faoliyatida qatnashish, O'zbekiston Respublikasining amaldagi tabiatni muhofaza qilish va sog'liqni saqlash qonunlarining bajarilishini nazorat qilishda talaba yoshlar va jamoatchilik vakillarining ishtirokini faollashtirish, ekologik muammolar yechimida va sog'liqni saqlash masalalarida ekologik harakatning dasturiy vazifalariga tayangan holda nodavlat notijorat

---

<sup>9</sup> Karimov I.A. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. # Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar.

tashkilotlar ishiga yordam berish kabi mushtarak maqsadlardan iboratdir. O'zbekiston ekologik harakati bunday tarbiyaviy vazifalarning yechimida Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan hamkorlikda, ekologik bilimlarni ommaboblashtirish, yoshlarning ekologik tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan faoliyatda ishtirok etishni ko'zda tutadi.

SHuningdek, yoshlar, shu jumladan talabalarning ekologik madaniyatini oshirish, ularning ekologik bilimlarni chuqurlashtirish bo'yicha ish olib bormoqda. O'zbekiston ekologik harakati a'zolari ushbu faoliyatni amalga oshirishda fuqoralik jamiyatini o'rganish instituti, "Mahalla" xayriya jamg'armasi, Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi, "Kamolot" O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy harakati, "Bioekosan" Respublika o'quv-uslubiy markazi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritmoqda.

Talaba yoshlarining ekologik tarbiyasida ekologik harakat tomonidan hamkorlar bilan birgalikda "Ekoyoz-2009" ekoaktsiyalari, "CHimyon sadosi-2009" xalqaro ekologik sayyohlik festivali, "Maishiy chiqindi muammolari-bolalar nigohida" bolalar rasm ko'rik tanlovlari kabi tadbirlar amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Ekologik harakat tomonidan tashkil qilingan "Ekologik ta'lim-tarbiya yo'nalishidagi eng namunali qishloq maktabi" Respublika tanlovi o'tkazilishi o'quvchi yoshlar ekologik tarbiyasida muhim o'rinnegalladi. Talabalarning ekologik madaniyatini oshirish maqsadida dolzarb ekologik mavzularda uzlucksiz davra suhbatlari, uchrashuvlar, viktorinalar o'tkazildi.

O'zbekiston ekologik harakati tomonidan yoshlarning mavjud ekologik muammolarni hal etishdagi faolligini kuchaytirish maqsadida "Ishonch telefoni" tashkil etgan. "Ishonch telefoni" 2009 yilning yarim yillik faoliyati davomida 150 dan ortiq murojaatlarni qabul qildi va ulardan 58,0%ini muvaffaqiyatli hal qildi.

Ijtimoiy iqtisodiy hayotning turli jabhalariga tegishli bo'lган ekologik muammolarni yoshlarning bevosita ishtirokida monitoring qilishda "Ishonch telefoni" faoliyati davomida orttirilgan tajriba amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston ekologik harakati dasturida qayd qilinganidek atrof muhit muhofazasi va ekologik holatni sog'lomlashtirish ishida jamoatchilik ishtirokini

kengaytirish, ushbu sohada qabul qilingan qonunlar va davlat miqyosidagi boshqa qarorlarning ijrosini ta'minlash hamda bu sohadagi qonunchilikni rivojlantirish, takomillashtirishga ko'maklashish bo'yicha tizimli ishlarni yuritish asosiy vazifa hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida oliy ma'lumotli mutaxasislar tayyorlash va ularni ekologik tarbiyalash bo'yicha ta'lim tizimi mukammallashtirildi. SHu munosobat bilan qayd qilish lozimki, oliy ma'lumotga ega bo'lgan bakalavrilar va magistirlarning ekologik harakatga a'zo bo'lishlari, ular tomonidan ekologik masalalar yechimini topishdagi taklif va mulohazalar bildirilishi, ilmiy xulosalar taqdim etilayotganligi ekologik harakatning faoliyatidagi samarali ishlarlardandir.

Talaba yoshlarga hozirgi globallashuv davridagi ekologik vaziyatning muhim muomalari ya'ni global, mintaqaviy, xududiy ahamiyat kasb etayotgan ekologik msalalar va ularning yechimini malakali mutaxasislar tomonidan yoshlarga tushintirilishi va jamiyatni modernizatsiyalash pallasida ular ongiga singdirilayotganligi talabalar ekologik tarbiyasiga muhim ta'sir vositasi hisoblanmoqda va ularning ekologik madaniyatni shakllantirish, hamda talabalarning fuqoralik jamiyatini qurishdagi faol ishtirokidagi muhim omildir.

O'zbekiston Respublikasi O'rta Osiyoda mintaqaviy ekologik xavfsizlikni ta'minlashda hal qiluvchi o'ringa egaligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston o'zining tabiiy resurslari, intellektual va iqtisodiy imkoniyatlar ko'lami bilan mintaqaviy ekologik muammolarni hal etishda faol ishtirok etayapti.

Bozor iqtisodiyotida sodir bo'layotgan tarkibiy o'zgarishlar tabiiy resurslardan unumli foydalanish darajasiga va atrof tabiiy muhitining ifloslanish darajasiga so'zsiz ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiyotning o'tish davrida O'zbekistonda "Ekologik qarorlar qabul qilish iqtisodiy jihatlari", ya'ni ekologik va iqtisodiy siyosatninguyg'unlashuvi alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Tabiatdan foydalanish va atrof muhitni muhofaza qilishda ma'muriy uslublarning tizimi respublikada tabiatni muhofaza qilish mexanizmida ham ustunlik qilib kelgan.

SHu bilan birga, rag'batlantirish vositasi sifatida boshqaruvning iqtisodiy uslublari tabiatni muhofaza qilish sohasida amalda' yetarlicha baholanmadı. Bir tomondan amaliy iqtisodiy vosita va rag'batning yo'qligi korxonalar tabiat resurslaridan kompleks va oqilona foydalanishni ta'minlashdan manfaatdor bo'lmasliklariga olib kelar edi.

Boshqa tomondan tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish va atrof-muhitni ifloslantirish korxonalar xo'jalik faoliyatları yakuniy natijalarida aks ettirilmas edi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha muhim tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy choralar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Amalga oshi-rilgan choralar atmosfera havosi ifloslanish darajasini kamaytirishga, asosiy suv oqimlari sifatini yaxshilashga, pestitsidlarni qo'llashni kamaytirishga, ekin maydonlari tuzilishini yaxshilashga, milliy ekologik muammolarni hal etishga xalqaro tashkilotlarni jalb etishga imkon berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A..Karimov ta'kidlaganidek “ Bugungi kunda O'zbekiston bug'doy, un, paxta yog'i, meva sabzovot, quruq mevallar va uzum, poliz maqsulotlari kabi o'tkir oziq ovqat tovarlari bilan nafaqat o'z ichki ehtiyojlarini to'liq ta'minlamoqda, balki ularni yurtimizdan tashqariga eksport qilmoqda”<sup>10</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi va uning mansabdor shaxslari o'z xizmat doiralarida qabul qilgan qarorlari barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralari, yuridik va jismoniy shaxslar uchun bajarishga majburiy hisoblanadi.

Qonunchilik bilan ko'zda tutilgan hollarda, O'zbekiston Respublikasi Davtabiatko'm qarorlari tsavlat boshqaruvining boshqa organlari, O'zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat organlari bilan birgalikda qabul qilinadi.

---

<sup>10</sup> I.A.Karimov. Inson manfaatlari ustivorligini ta'minlash barcha islohatlarimizning bosh maqsadidir. T.: O'zbekiston. 2008. 13 bet.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning davlat nazorati hamda sohalararo muvofiqlashtiruvini davlat boshqaruvi boshqa respublika organlari hamda davlat hokimiyati organlari bi-lan birgalikda amalga oshiradi va vazirliklar, davlat qo'mitalari, boshqa davlat boshqaruv respublika organla-rining agentliklar, qo'mitalar, markazlar va boshqa idoralar joylardagi davlat hokimiyat organlari va fuqarolar o'z-o'zini boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vazifalari hisoblangan tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha faoliyatlarini bajarmaydi,

Atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va qayta tiklashning davlat boshqaruvi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Sanoatda ishlarni xavfsiz bajarishni nazorat qilish va tog' nazorati bo'yicha Davlat inspeksiysi, yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat qo'mitalarining atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishni nazorat qilish ishlari bo'yicha hamda tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish sohasidagi boshqa davlat boshqaruv organlarning faoliyatları muvofiqlashtiruv asosida amalga oshiriladi.

### **Birinchi bob bo'yicha xulosa**

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy, madaniy hayotida talaba yoshlar muhim o'rinnegallaydi. O'quvchi yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish, ularning bugungi kun talablariga javob beradigan darajada, yuqori malakali pedagog professor o'qituvchilar yordamida zamonaviy, dunyoviy bilim olishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan, hayotga tatbiq etilib, dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirofiga sazovor bo'lган Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, "Ta'lim to'g'risidagi" qonunning amaliyotdagি

ijrosi o'quvchi yoshlarimizning ekologik ta'lif, tarbiyasida, ularda ekologik madaniyatni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning o'quvchi yoshlar kamolotini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli Davlat siyosati tufayli yurtimizda o'quvchi yoshlar ekologik tarbiyasi va ekologik madaniyatini shakllantirishning xuquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy asosi yaratilgan. Davlatimiz rahbarining taklifi bilan 2010 yil "Barkamol avlod yili", 2011 yilning "Kichik biznes va dadbirkorlik yili" deb atalishi o'quvchi yoshlarimizning har tomonloma ijtimoiy, iqtisodiy hayotda o'z o'rinalarini egallashlari uchun barcha imkoniyatlar vujudga keltirilganligidan darak beradi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlagalaridek, "vatanimizning kelajagi, xalqimizning jahon hamjamiatidagi obro'-e'tibori avvalombor farzandlarimizning unib- o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak.

O'zbekistonda mustaqillik yillarda Oliy majlis tomonidan ekoliya bo'yicha qonunlar va Direktiv hujjatlar qabul qilindi. Ushbu umumdavlat ahamiyatiga molik ekologik yo'nalishdagi hujjatlar mazmuni aholi orasida, o'quvchi yoshlarimizga tizimli ta'lif tarbiya vositalari orqali tushintirilmoqda.

Buning isboti O'zbekistonda "Ekologik harakati"ning vujudga kelganligi va ushbu jamoat tashkilot bo'g'inlarining viloyatlar, tumanlarda tashkil etilganligidir.

## **2.1. O'quvchilar ekologik tarbiyasida ma'naviy tadbirlarning o'rni.**

Bugungi kunda ekoliya muammolari umumjahon (umuminsoniyat, umumbashariyat) muammosiga aylangan. SHu sababli bu masala yechimiga bir, ikki davlat emas, balki o'z atrofimizdagи olam muvozanatini o'ylayotgan ko'pgina davlatlar e'tibor bermoqda. Jumladan, bu muammo yechimi Respublikamizda ham davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18 – moddasida yer usti va yer osti boyliklarini, suv manbalarini, o'simlik va hayvonot dunyosini saqlash, qo'riqlash hamda bu moddiy boyliklardan mamlakatimiz taraqqiyotini o'ylagan

holda oqilona foydalanish, ob-havoning toza va musaffo bo'lishiga doimo harakat qilish, tabiiy (er usti va osti) boyliklarni uzluksiz yuksaltirib borishni ta'minlash, atrofimizdagi olamni yaxshilash uchun doimo chora – tadbirlar ko'rib borishimiz ta'kidlangan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 – dekabrda qabul qilingan “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993 yil 23 – apreldagi “Sog'lom avlod uchun” “xalqaro nodavlat xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida”gi Farmoni, o'sha yili “Sog'lom avlod uchun” ordenining ta'sis etilishi, shu nomda Davlat dasturi, “Ekologik ta'lim–tarbiya kontseptsiyasi”ning ishlab chiqilishi, “Ekosan” jamg'armasining tuzilishi mamlakatda ekologik muammolarni bartaraf etishga davlatimiz hukumatining g'amxo'rligidan dalolatdir.

Qadimda ham ekologik muammolarni hal qilishga urinishlar bo'lgan. Ayniqsa “Avesto” nomli hayotiy qomusimizda, “Qur'oni Karim” va “Hadisi sha'rif” nomli kitoblarda ham ushbu muammolarga e'tibor berib kelingan.

Ekologik tarbiyaga e'tibor yurtimizda oiladan, bog'cha va yaslilardanoq boshlab yuborilgan. Hozirgi paytda umumta'lim maktablarida ham ekologik yo'nalishdagi sinflarning tashkil etilishi va shular asosida litsey va maktablarda ta'lim – tarbiya ishlarining olib borilishi yoshlarga maktab partasidanoq tabiatga muhabbat ruhida tarbiya berishga astoydil kirishilganligidan dalolatdir.

“Ekologik ta'lim – tarbiya – ekologik bilimlarni berish, ularda tashqi muhit va vujud orasidagi u兹viy bog'liqlik mavjudligini his ettirish, tabiiy va ijtimoiy muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish ko'nikmalarini hosil qildirish”<sup>11</sup>.

Talaba – yoshlarga ekologik ta'lim – tarbiya berishda ularga tegishli tushuncha va atamalarning mazmun – mohiyatini yoshlar ongiga singdirish ushbu sohadagi ishimiz samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir etadi.

1. “Ekologik joy – ekomuhit” – tabiatda tur yashashi mumkin bo'lgan barcha muhit omillari majmui.

2. Ekologik krizis – ekologik tanglik – ekologik sistemalar, alohida hududlar yoki biosfera miqyosidagi tabiiy ofatlar: toshqin; yer silkinishi; vulkanlar

---

<sup>11</sup> Bozorov O., SHodiev D. O'rta Osiyo tasavvufi va axloqiy qadriyatlar. Samarqand: Zarafshon, 1992.

otilishi; qurg'oqchilik; dovul; chigirtkalar ofati; yong'in va boshqa holatlar oqibatida yuz beradigan ekologik vaziyat.

3. Ekologik muvozanat – inson, o'simlik va hayvonlar uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoitlar muvozanati.

4. Ekologik omillar – atrof muhitning organizmlar faoliyatiga o'ziga xos ta'sir etuvchi ma'lum sharoitlari va elementlari majmui.<sup>12</sup>

5. Ekologik madaniyat – kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish uchun ekologik javobgarlikni his qilish tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga egaligi jahon va hududiy darajada ekologik muammolarni ochishda qatnashishga tayyorgarligi va boshqalar.

6. Ekologik tanglik xavfi – XX asr davomida texnikaning rivoji, xalq xo'jaligini va kundalik turmushni kimyolashtirish, yer yuzida aholi sonining keskin ko'payishi oqibatida tabiat bilan inson o'rtaсидagi muvozanatning buzilishi, yer, suv, havoning inson hayotiga zararli darajada ifloslanishi natijasida paydo bo'lgan holat.

"Jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darjasini qanchalik yuqori bo'lsa, uning tabiatga ta'sir etish darjasini ham shunchalik ko'p bo'lar ekan. Aholi sonining tez o'sib borishi natijasida ekologik muammolar ko'payib bormoqda. Ayniqsa, yer, suv, energetika, oziq – ovqat bilan ta'minlash haqidagi muammolar butun dunyo (global) muammolarga aylanib bormoqda. Yer bag'ridan har yili 120 mlrd. tonnadan ortiq turli xildagi xom ashyo, qurilish materiallari, yoqilg'ini qazib olinishi va sarf qilinishi tabiiy boyliklar miqdorining kamayib borishiga sabab bo'lmoqda. Ko'pgina zararli korxonalar, zavodlarning oqar suvga yaqin joylashganligi sababli suv havzalarini toza saqlash muammo bo'lib borayotir. Markaziy Osiyoda yashayotgan fuqarolarning salomatligi yomonlashib kasalliklar ko'paymoqda. Yer kurrasida insonning yashab qolish – qolmasligi masalasi endi ekologik muammolarni yechishga bog'liq bo'lib qoladi".<sup>13</sup>

Ekologik ta'lim - tarbiya pedagogika sohasida muhim yo'naliш hisoblanadi.

---

<sup>12</sup> Pedagogik atamalar lug'ati. Toshkent, Fan, 2008.

<sup>13</sup> Ziyomuhhammadov B. Pedagogika. Toshkent: Turon – Iqbol, 2006, - B. 112.

Ekologik ta’lim – talaba – yoshlarga tabiat va inson orasidagi munosababtlarni ifodalovchi bilimlar tizimini berish jarayonidagi o’qitishdan iborat.

Ekologik tarbiya – talaba – yoshlarning atrofimizdagi olamga, atrof – muhitga nisbatan ongli munosabatini tarbiyalashdan iboratdir.

Demak, bundan ekologik ta’lim – tarbiyaning mazmun – mohiyatini quyidagicha ifodalash mumkin, ya’ni umumiy ta’lim – tarbiyaning asosiy va tarkibiy qismlaridan biri bo’lib, uning yordamida talaba – yoshlarda atrof – muhit va uning muammolari yechimlariga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdir hamda ularni kelajakda ekologik tarbiyani olib borishga oid bilim – ko’nikma va malakalar bilan qurollantirish.

Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalari.

Ekologik tarbiyaning bosh maqsadi talaba – yoshlarda atrof – muhit va uning muammolari haqida ongli munosabatni hamda ular bo’yicha optimal yechimlar topish to’g’risidagi bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun bir qator vazifalarni hal qilishga to’g’ri keladi.

1. Talaba – yoshlarimizga ekologik tarbiya berishda ularning yashab turgan joyi (tabiati) va boyliklarini tejab – tergashga, ularni ongli ravishda muhofaza qilishga o’rgatish.

2. Ekologik madaniyatni shakllantirish. Bu eng avvalo oiladan boshlanmog’i lozim.

Talaba – yoshlardagi ekologik madaniyatni shakllantirishda quyidagi jihatlarga alohida e’tibor berilib borilmog’i lozim:

- atrofni ifoslantirish kishilarga kasalliklarini olib keluvchi manba bo’lishligiga;

- yong’in oqibatlarining tabiatga zarari va yong’in chiqmaslik chora – tadbirlarini ko’ra bilishlikka o’rgatish;

- “suvga tuflama, uni iflos qilma” degan da’vatning mazmun – mohiyatini bilishlikka;

•gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirmaslik, uning mevasidan insoniyat foydalanishligi hayotiy ehtiyoj ekanligi haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga va shu kabilarga.

3. Ekologik savodxonlikni shakllantirish. Bunga talaba – yoshlarga ta'lif – tarbiya berishda hayotiy misollardan foydalangan ma'qul.

•dam olishga chiqilganda o't – o'lanlarning payhon qilinishi va bu joylarda shisha siniqlarining qolishi jamiyat, tabiat va kishilar salomatligiga ta'siri oqibatlari haqida talaba – yoshlar ongida tasavvurlarni shakllantirish;

•daraxtlar, o'simliklar olamiga va hayvonlarga nisbatan murosasizlik bilan munosabatda bo'lish oqibatlarining tabiat va jamiyatga zararli ta'sirini talaba – yoshlar ongiga singdirish;

•zavod va fabrikalardagi zararli chiqindilarning insoniyat taraqqiyotiga ta'sirini va uning oqibatlarini talaba – yoshlar ongiga singdirishning axborot – kommunikatsion texnologiyalarini yaratishga erishish;

•ekologik tarbiyani bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi barcha fanlarni o'qitishda olib borishga erishish;

•auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda va ekskursiya hamda sayohatlarda ekologik tarbiyani olib borish;

•fanlarni o'qitishda talaba – yoshlarga ekologik muammolarni o'rgatish orqali ularda tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanishga oid beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

4. Talaba–yoshlarga ekologiya haqidagi tushunchalar va qonuniyatlar to'g'risida bilim berish. Bunda mehnat muhofazasi, tabiatni asrash, noyob jonzotlar ro'yxati, tabiat va atmosferadagi inqirozlar oldini olishga oid tushunchalar va qonuniyatlarga e'tibor beriladi.

Demak, talaba – yoshlar ekologik tarbiyasidan ko'zlangan maqsadlardan biri birinchi tomondan muqaddas Ona zaminimizni ozoda qilib saqlash bo'lsa, ikkinchi tomondan musaffo osmonimizni aslidagidek saqlashdan iborat. Bu ona diyormizni obod etishga qo'shiladigan katta hissa bo'lib, uning yordamida talaba – yoshlarda

obodonchilik va orastalik, pokizalik va tejamkorlik, xushxulqlik va xushmuomalalik kabi insoniy fazilatlar shakllanadi. Bular talaba – yoshlarda quyidagi ekologik qonuniyatlar va tushunchalarni ongli ravishda anglashni kafolatlaydi:

- tabiat haqidagi tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy omillar va ular orasidagi bog'lanish;
- tabiat boyliklaridan tejab - tergab foydalanish va ularni muhofaza qilish;
- atrof – muhitni ifloslanishdan saqlash;

tabiatni kelajak avlodlar uchun qanday bo'lsa, o'shandayligicha qoldirishga intilish va shu kabilar. O'zida yuksak fazilat ma'naviy-axloqiy poklik va insoniy kamolot kabi xislatlarni bir-biri bilan uyg'unlashtiradigan shaxs tarbiyasi ta'lim-tarbiya tizimining bosh masalasi hisoblanadi.

Bugungi yoshlarda zamonamizning eng mashhur (ijobiy ma'noda) kishilarga o'xshashlik, namunaning tarbiyaviy kuchi o'quvchilarining (bolalarning) taqlid qilishga moyilligiga asoslangandir. Yoshlar ko'pincha ota-onalariga, ma'lum bir ijobiy yutuqlarga erishgan qarindoshlariga, o'qituvchilariga va mashhur qahramonlarga taqlid qiladi.

Turli yoshdagagi bolalarga taqlid qilishiga moyillik turlicha bo'ladi.

Bolalar ulg'ayib borgan sari tevarak atrofidagi katta yoshdagagi kishilarning xatti-harakatlariga taboro tanqidiy nazar bilan qaraydigan bo'ladi. SHu yoshdagagi bolalar o'z nuqtai nazarlaridan taqlid qilishga arzигуллик deb bilgan kishilarni o'zлари uchun namuna deb biladilar va ularga e'tiqod qo'yadilar.

Ma'lumki, tarbiya vositasi bo'lgan namuna mohiyat e'tibori bilan e'tiqodga yaqin turadi. E'tiqod tushunchasi yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda muhum o'rin tutadi. Bunda tarbiyachi o'quvchilarining shaxsiy tajribasiga tayanib ularning ongiga, hissiyotlariga ta'sir qiladi. SHu yo'l bilan yoshlarda ijobiy axloqiy sifatlar tarkib topa boradi hamda mustahkamlanadi ulardagи salbiy hulq odatlari yo'qotiladi.

O'quvchilarda e'tiqod hosil qilish jarayonida etikaga oid tushunchalar ham tarkib topib boradi.

E'tiqod tarbiyasini amalga oshirishda har bir o'quvchining qiziqish doirasini, maylini, fikr-o'yini diqqat bilan o'rganish talab etiladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya yoshlarning barkamol bo'lib shakllanishida mustahkam asosdir.

Ta'lim oluvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida o'ziga xos metodlar, shakllar va vositalar mavjud bo'lib, ular ushbu sohadagi faoliyat olib borishning samarasini belgilashda metodik asos ham bo'ladi. Yoshlar orasida olib boriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning quyidagicha metod, shakl va vositalari bor. Ular haqida qisqacha ma'lumot beramiz:

1. Ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar: talabaning muomala madaniyati; talabaning ma'naviy qiyofasiga qo'yiladigan talablar; talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish – dolzarb vazifa; ma'naviyat tushunchasi; Vatan tuyg'usi – muqaddas tuyg'u; talabaning tashqi ko'rinishi va uning ichki dunyosi; kitoblar – bilim va ma'naviyat manbai; talabalarda badiiy tafakkurni shakllantirish; mustaqillik nashidalari; yoshlar intellektual salohiyati – kelajak muvaffaqiyati; fidokor yoshlar qanday bo'lishi kerak?; ajdodlar merosi – ma'naviyatimiz sarchashmalari; zamonaviy urf-odatlarda madaniyat va ma'naviyat; Amir Temur yoshlar kamoloti haqida; Vatan qahramonlari va ularning jasoratlari; mustaqil O'zbekiston jahon nigohida; O'zbekistonning tashqi siyosati va uning ustivor yo'nalishlari; yuksak madaniyat va ma'naviyat – jamiyat taraqqiyotining poydevori; tarix – millat ma'naviyatining negizi kabi darslarni uyuştirish. Bunda turli fanlardan mavzularini o'tishda o'sha fanda tarbiyaga oid lavha va epizodlarni namoyish qilish amalga oshiriladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar alohida ahamiyatga ega. Bunday suhbatlar mazmun jihatidan rang-barang bo'lishi mumkin.

2. Hikoya;
3. Tushuntirish;
4. Ma'ruza va seminar tashkil etish va uyuştirish: ma'naviyatimizning buyuk timsollari; jadidchilik harakati namoyondalari; ma'naviy tarbiyada ommaviy

axborot vositalarining roli va o'rni; mehr va muruvvat – ulug' insoniy qadriyat; axloq kategoriyalari va barkamol avlod tarbiyasi; ezgulik va muqaddas kitoblar; ma'naviy-axloqiy tarbiya – kasbiy barkamollik asosidir va shu kabilar;

5. Namuna ko'rsatish. Bunda ustoz va murabbiylarning shaxsiy ibrat-namunasi e'tiborga olinadi hamda «ibrat-namuna – hayot dorilfununi» ruknida faoliyatni doimo yuritib turish lozim bo'ladi va bu jarayonni talabalar o'qiydigan o'quv muassasalaridagi ustoz-murabbiylar hayoti va faoliyatidan boshlagani ma'qul;

Ijobiy shaxsiy namuna – talabalar shaxsini shakllantirishda alohida o'rin egallashi mumkin bo'lgan metod bo'lib, shaxsga shaxs orqali ta'sir etishning eng ob'ektiv yo'li hisoblanadi. Yoshlar balog'at yoshiga yetib, mustaqil hayotni boshlagunlariga qadar bilish, o'rganish jarayonida o'qituvchi-tarbiyachiga, ota-onaga, qo'ni-qo'shniga, doston, drama yoki adabiy asarlar qahramonlariga taqlid qilishadi. Talabalar o'zлari yoqtiradigan odamga taqlid qilish natijasida o'zlarini mag'rur tutadilar, xatti-harakatlari xuddi kattalarnikidek tuyuladi. Ya.N.Komenskiyning fikricha, «Bola o'qishni o'rganishdan oldin taqlid qilishni o'rganadi». Taqlid qilish orqali yoshlarning o'z tajribasi qo'shilib ketib, ularda yangi shaxsiy xislatlar paydo bo'la boshlaydi.

Umuman, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi odobi, a'lo o'qiydigan talabalarni boshqalarga namuna qilib ko'rsatishi orqali ham talabalarning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Biroq, namuna qilib ko'rsatuvchi talabaning shaxsini haddan ziyod maqtamaslik va o'zgalarning shaxsiyatiga tegmaslikka alohida e'tibor berishi lozim.

6. Kishi ijobiy xislat va fazilatlari insonning oljanobligi ekanligiga ishontirish.

Ishontirish tarbiya metodi – talabalar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishdagi asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Ishontirish metodida o'qituvchi talabalar ongiga, ruhiga, oriyatiga, irodasiga ta'sir etish yo'li bilan ularning xarakteridagi axloqiy intellektual va boshqa ijobiy xislatlarini shakllantiradi, illatlarni kamaytiradi. Salbiy xislatlardan saqlaydi. Ishontirish

shakllanayotgan shaxsga umuminsoniy qadriyatlarga, milliy udum va an'analarga, falsafiy dunyoqarashga asoslanib, milliy mafkuraning asl mohiyatini chuqr tushuntirishga tayanadigan metod hisoblanadi.

7. Bahs-munozaralar uyushtirish. Bunda qutlug' sanalarni nishonlash bo'yicha, allomalarining ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari bo'yicha kitob va kitob xosiyati haqida; kasb va hunar haqida; hamkolik – taraqqiyot omili xususida; «zukkolik va bilimdonlik – aql oynasi» bo'yicha; giyohvandlik, terrorchilik va ularning barkamol avlod tarbiyasiga ta'sirlari to'g'risida, ma'naviy yetuk va ma'naviy qashshoq insonlarning jamiyatdagi o'rni haqida; «mustaqillik va ilm-fan»; «mustaqillik va ta'lim-tarbiya», «mustaqillik va imkoniyat hamda mas'uliyat» ruknlaridagi jarayonlar; halollik va fidoiylik va h.k. shu kabilar orqali tarbiyaviy tadbirlar amalga oshiriladi hamda bahs-munozarani boshqaruvchi mashg'ulotning ma'naviy-axloqiy jihat bo'yicha xulosalarni bayon qiladi.

Talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashda munozaralar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy-axloqiy mavzulardagi munozaralar talabalarda muayyan holat, hodisalarga nisbatan to'g'ri baho berishga, bu borada fikr yuritishga o'rgatish hamda e'tiqodni shakllantirishga xizmat qiladi. Munozara o'y-fikrlarni tartibga soladi, talabalarни mustaqil fikrlashga, bahs yuritishni tashkil etishga, o'rtog'ini tinglashga, o'z fikrini ilgari surish va uni obrazli tarzda himoya qilishga, ayni chog'da o'z xatolarini tan olishga o'rgatadi.

8. Uchrashashuvlar. Bunda quyidagi holatlarda tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish maqsadga muvofiq: O'zbekiston Respublikasining madhiyasi «Adolat mezoni – yetuklik belgisi» mavzusida uchrashuv; «14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni» munosabati bilan «Vatan sajdah kabi muqaddasdir» mavzusida O'zbekiston qurolli kuchlarining yetuk mutaxassislari bilan uchrashuv; «1-mart – giyohvandlik va giyohvand moddalar bilan savdo qilishga qarshi kurash kuni» bilan bog'liq uchrashuvchilar; «1-oktyabr – Xalqaro qariyalar kuni» va «1-oktyabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuni»ga oid uchrashuvlar; «5-oktyabr – Xalqaro o'qituvchilar kuni» va «5-oktyabr – Xalqaro shifokorlar kuni»ga bog'liq

uchrashuvlar; «24-oktyabr – Xalqaro BMT kuni»ga oid uchrashuvlar; «4-noyabr – «YuNESKO» tashkil topgan kun»ga oid uchrashuvlar va h.k.

9. Matbuot konferentsiyasi.

10. Tanlovlар o’tkazish. Bunda ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid tadbirlar amalga oshiriladi va quyidagi yo’nalishlarda olib boriladi: «Krassvord» yechish bo’yicha; «Rebus» tuzish bo’yicha; «Boshqotirma»lar tayyorlash bo’yicha; «Tafakkuringizni sinab ko’ring» va «Intellektual ring» o’yinlari bo’yicha; «Bilimlar o’chog’i»ga va «Oltin toj» o’yinlari asosida; «SHaxs kamoloti o’quvi» va «Yangi fikr» to’garaklari mashg’ulotlari asosida va h.k.

11. Sahnaviy darslar o’tkazish.

12. Matbuot materiallari.

13. O’quv va yordamchi adabiyotlar bilan ishlash.

14. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid multimediali tarbiya texnologiyalari. Bunda milliy g’oyani o’rganishga tayyorlangan axborotlashtirilgan ta’lim texnologiyasi, milliy-ma’naviy qadriyatlarni o’rganishga oid «Qadriyatlar» nomli ko’makchili kompyuterli tizim, bunyodkor g’oyalarni o’rganishga oid «Bunyodkor» nomli axborotlashtirilgan ta’lim texnologiyasi, talabalar dunyoqarashini yuksaltirishga oid «Intellekt» nomli kompyuterli tizim, ma’naviy-axloqiy tarbiya berishni optimallashtirishga oid «Axloq» mavzusidagi axborotlashtirilgan intellektual tizim va shu kabilarga e’tibor qaratiladi.

1. Rasmiy kasbiy o’yinlar. Bunda ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid ma’lumotlar to’planadi va ayniqsa buyuk allomalarining faoliyati hamda qarashlari, asarlari asosidagi axloq kategoriyalari va ularning mazmun-mohiyatini ochib berishga oid o’yinlarni («Aql-zakovat», «Oltin toj», «O’yla, izla, top», «Yangi fikr», «Pedagog kim», «Tarbiyachilarmi yoki murabbiy» va shu kabilar uyushtirish.

2. Ishchanlik o’yinlari. Bunda «Aqli odam bo’lish yaxshimi yoki dono», «Olim kimu fozil kim?» va h.k. ko’rinishdagi o’yinlar orqali talabalarga axloqiy tarbiya berish amalga oshiriladi.

3. «Aqliy hujum». Bunda talabalar ongida ezgulikni va adolatni shakllantirishga oid trening darslarini tashkil etish nazarda tutiladi.

4. Fikr va g'oyalarni tizimlashtirish. Bunda fikrlar va g'oyalar kurashi asosida jaholatga qarshi kurashda ma'rifatga va ma'naviyatga tayanish lozimligi ta'kidlanadi.

5. Bahs-munozara. Bunda «Oddiy haqiqatlar», «Siz intellektual salohiyatlimisiz?», «Barkamol avlod kim?», «Komil inson kim?», «Donishmandlik qanday shaxslarga xos?» va shu kabi mavzular uyushtiriladi. Ularda talaba-yoshlarning axloq kategoriyalari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish nazarda tutiladi.

6. Musobaqa. Bunda insonning individdan shaxs darajasiga yuksalishi, aqli odamning dono darajasigacha yuksalishi va hokazo insonning donishmand darajasigacha aqliy kamoloti bosqichlariga oid guruqlar orasidagi musobaqalar tashkil etiladi. Ulardan ko'zlangan maqsad talabalar ongida ma'naviy yetuk shaxs modelini yaratishdan iborat bo'ladi.

7. Devoriy gazeta. Bunda beriladigan ma'lumotlar talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga oid materiallardan iborat bo'ladi va ular iloji boricha darslik va o'quv qo'llanmalaridagi materiallarni boyitishga qaratilgan bo'lmos'i lozim.

8. Ma'naviy-axloqiy mavzularga oid albom va jurnal tayyorlash. Bunda ma'naviyatimiz buyuk timsollarining muayyan bir kishisiga yoki bir yo'nalishdagi ulug' insonlar fikr, qarash, g'oya va ta'limotlariga asoslangan holda jurnal va albomlar tayyorlash e'tiborga olinadi.

9. Axloqiy-muammoli vaziyatlar tahlili. Bunda bunyodkor va vayronkor g'oyalarning odamga, oilaga, jamoaga va davlatga turli xil ta'sirlari to'g'risidagi muammoli vaziyatlar talabalar ishtirokida tahlil etiladi va uning natijasida hosil bo'ladigan xulosalarning yoshlarga milliy-ma'naviy tarbiya berishdagi ahamiyati ham o'rganiladi.

Demak, ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlari va vositalari hamda ulardan maqsadga muvofiq foydalanish barkamol avlodni shakllantirishda mustahkam asoslardan biri hisoblanadi.

## **2.2. O’quvchilar ekologik tarbiyasi yuksalishida milliy qadriyatlardan foydalanish.**

Uzoq tarixga nazar tashlaydigan bo’lsak, O’rta Osiyo xalqlari, jumladan o’zbeklar ham jahondagi eng qadimiy xalqlardan hisoblanadi va ular jahon ilm – faniga, ma’naviy – ma’rifiy taraqqiyotiga katta hissa qo’shganligining guvohi bo’lamiz. Ota – bobolarimizning bu boradagi qoldirgan boy ma’naviy merosi, milliy merosimizni chuqur, har taraflama o’rganishimizga va u haqda xolisona fikr bildirishga hamda O’zbekiston mustaqilligiga erishuviga buyuk ma’naviy ozuqa bo’ldi yoki ota – bobolarimiz qoldirgan milliy qadriyatlarimizni tiklash va ularni targ’ib qilishga keng imkoniyatlar yaratildi.

“Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so’ng, ekologik tarbiyada xalq pedagogikasidan foydalanishga katta e’tibor berib kelinmoqda. Atrof – muhitni muhofaza etish, moddiy boyliklardan oqilona foydalanishga oid tarbiyani milliy qadriyatlar va an’analar, sharqona urf – odatlar orqali berish ehtiyoji paydo bo’ldi.

O’qituvchining bolalarga ekologik ta’lim va tarbiya berishda xalqimizning o’ziga xos milliy tarbiyasidan o’rinli foydalanishi yaxshi samara beradi. Milliy tarbiyamizda to’rt narsa, yer, suv, tuproq, havo muqaddas hisoblangan. Xalqimiz juda qadim zamonlardan suvgaga e’tiqod qo’yib, yozning eng jazirama kunlarida “Suv sayli” o’tkazgan. Ota – bobolarimiz “Suv tabiat in’omi, hayot manbai”, deb bejiz aytishmagan. Har tomchi suvni gavhardek qadrlab, bog’ – rog’lar yaratishgan. Biz esa suvdan xo’jasizlarcha foydalanishimiz natijasida Orol muammosining tug’ilishiga sababchi bo’ldik. Sirdaryo va Amudaryoning belgilangan yerga to’la yetib bormasligi natijasida bugun O’rta Osiyo uchun ahamiyatli bo’lgan Orolning butunlay yo’qolish xavfi bo’ldi”.<sup>14</sup>

Demak, talaba – yoshlarga ekologik tarbiya berishda milliy qadriyatlar, urf – odatlar, an’analar, marosimlar, nodir qo’lyozmalar va davlat arboblarining ushbu

---

<sup>14</sup> Ziyomuhhammadov B. Pedagogika. Toshkent: Turon – Iqbol, 2006, - B. 112.

sohaga oid faoliyatlari mustahkam didaktik asos bo'lib, bular orqali ularni atrof – muhitni toza saqlashga, ozodalikka, pokizalikka va eng asosiy sog'lom turmush tarzi hamda muhitini tashkil eta olishlikka o'rgatiladi.

Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan taraqqiyoti darajasi undagi xalq xo'jaligining turli jabhalariga ta'sir etadi. Bu borada o'ziga xos global va mintaqaviy ekologik muammolar ham yuzaga kelaveradi. Bunda global muammolarga Orol fojiasi, Chernobil halokati, Xarosima va Nagasaki shaharlardagi bombo portlashlar hamda shu kabilar misol bo'la olsa, mintaqaviy muammolarga zavod va fabrikalardan chiqadigan zararli chiqindilar yoki ma'lum hududdagi tuproq erroziyasi, ba'zi kasalliklarning ko'payishi va shu kabilarni misol qilib olish mumkin.

SHu sababli ekologik tarbiya yo'naliishlari ham turli xil bo'ladi. Quyida ularning ba'zilari to'g'risidagi ma'lumotlar keltiramiz:

1. Talaba – yoshlarni yashab turgan joyidagi tabiatimiz boyliklarini tejab – tergashga, uni muhofaza qilishga o'rgatish.
2. Talaba – yoshlarni o'z o'quv muassasalarini va uning tevarak – atroflarini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish, mevali va manzarali daraxtlar ekishga o'rgatish.
3. Talaba – yoshlarda xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash ko'nikmalarini shakllantirish.
4. Ekologik dunyoqarashni yuksaltirish.
5. Ekologik madaniyatni shakllantirish.
6. Ekologik savodxonlikni yuksaltirish.
7. Talaba – yoshlar ongida atrof – muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.
8. Talaba – yoshlar ongida tabiat va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqidagi tasavvurlarni paydo qilish.
9. Talaba – yoshlarga ekologik tarbiya berishda o'quv muassasalari va oila o'rtasidagi umumiylilik va xususiylik.

10. Talaba – yoshlar ongida atrof – muhit muhofazasida bolalarning vazifasi haqida tasavvur hosil qilish.

11. Talaba – yoshlar ongida tabiatni muhofaza qilishda ota – ona ibrat – namunasi haqidagi tasavvurlarni hosil qilish.

12. Talaba – yoshlarni oiladagi, o'quv muassasasidagi o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish, jonivor va qushlarni parvarish qilishdagi bilim va ko'nikmani yuksaltirish.

13. Talaba – yoshlarga ekologik tarbiya berishda milliy an'ana va urf – odatlarni tiklashga e'tiborni qaratish.

14. Talaba – yoshlarga ekologik tarbiya berishda to'garaklardan foydalanish va ularda "Tabiat va inson", "Ekologiya va inson", "Orol madad so'raydi", "Tabiatni e'zozlaylik", "Suvni muqaddas deb bilaylik" va shu kabi mavzularda davra suhbatlari uyushtirish.

Ushbu yo'naliishlar bo'yicha ish olib borish orqali ota – bobolarimizning azal – azaldan tabiatga yuksak mehr va ehtirom ko'rsatishganligini talaba – yoshlar ongiga singdirish mumkin.

Talaba – yoshlarning ekologik savodxonligini oshirishda xalqimizning tabiatga munosabati: urug' qadash, qovun sayli, suv sayli, uzum sayli, hosil bayrami, Navro'z bayrami, xirmon to'yi, hovli to'yi va shu kabilarning ahamiyati katta.

O'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borganda ularga ekologik terminlarning mohiyati hayaida quyidagi ma'lumotlarni berish maqsadga muvofiqliqdir.

Iqtisodiy tarbiya – jamiyat va davlat, oiladagi jarayonlarga ongli munosabatni shakllantirish bilan bir qatorda tejamkorlikni, isrofgarlikka yo'l qo'ymaslikni, ishbilarmonlikni, tadbirkorlikni, iqtisodiy hisob-kitob kabi iqtisodiy tushunchalarini qamrab oluvchi insoniy fazilatlarni yuksaltirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy asosdir.

Iqtisodiy ta'lim – uzliksiz ta'lim jarayonida yoshlarga iqtisodiy bilim berishga yo'naltirilgan o'quv fani, ta'lim sohasi.

Oila byudjeti – oila moddiy mablag'i. Oilada bolalarning oila moddiy mablag'iga munosabati tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Boylik – bu ko'p jihatli (omilli) tushuncha bo'lib, moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasidir.

Ekologiya (yun. oikos – uy, turar joy va logiya - –a'limot) – organizmdan har xil darajada yuqori turadigan sistemalar: populyatsiyalar; biotsenozlar; biogeotsenozlar va biosferaning tuzilishi, ularda kechadigan jarayonlarni o'rGANADIGAN biologik fanlar majmui.

Ekologiya termini – 1866 yilda nemis olimi E.Gekkel tomonidan fanga kiritildi va uni tirik organizmlarning atrof-muhit bilan munosabatlarini belgilash uchun taklif etdi.

Ekologik tarbiya – ta'lim-tarbiyaning takribiy qismi bo'lib, talaba-yoshlarda atrofdagi olamga, atrof-muhit va uning muammolari yechimiga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish.

Ekologik ta'lim – yoshlarga tabiat va inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimini berish jarayonidagi o'qitishdir.

Ekologik madaniyat – kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish uchun ekologik javobgarlikni his etish, tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga egaligi, jahon va hududiy darajada ekologik muammolarni ochishda qatnashishga tayyorgarligi.

O'zbek mentalitetining muhim xususiyatlaridan biri-maxsus ijtimoiy tuzilma mahallaning mavjudligidir.

Toshkent shahrida XIX asrdan boshlab mahalla mavjud. Ularning tashkil topishi va faoliyat yuritishi bir tomondan milliy- psixologik xususiyatlari, boshqa tomondan esa aholiga yoshligidanoq ijtimoiy munosabatlarga g'arq bo'lishlariga imkon yaratish bilan bog'liqdir. Boshqacha aytganda, mahalla mikrotsizm bo'lib, unda axloqiy tamoyil va qoidalarga amal qilish, marosim va jamoat faoliyatining boshqa turlarida ishtirok etish orqali shaxsning yanada kattaroq hamjamiyatda ijtimoiylashuvi usullari shakllanadi. Mahallaning demokratiyalashuv, ijtimoiylashuv, insoniylashuv va mukammallahuv jarayonlariga faol ta'sir qila olishini Prezident I.A.Karimov quyidagicha ta'kidlab o'tgan: "Yoki masalan

mahalla-bizning jamiyat hayotida insoniy tarbiya va kelishuvning o'zgarmas manbasi. Tarixning guvohlik berishicha, bizning davlatda daryolar bo'yida paydo bo'lган. Tabiat kataklizmalar, tashqi hayvonlarni birgalikda yengish, qiyin kunlarda qo'llab-quvvatlash bizning ajdodlarimizni jamoa bo'lib yashashga o'rgatgan.

O'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishda mahallaning roli katta. Mehribonlik, rahmdillik kabi qadrli insoniy hislatlar aynan mahallada shakllanadi. Bu ma'noda mahallani o'z-o'zini boshqarish maktabi, kerak bo'lsa demokratiya maktabi desa bo'ladi. Mahallada tevark atrofni saqlash madaniyati ham shakllanadi. Bu ekologik vaziyatga ijobiy ta'sir qiladi.

Ijtimoiylashuv nafaqat shaxsning jamiyatda qulayliklarga ega bo'lishini ko'zda tutadi, balki shaxsning muayyan axloqiy va etnik qoidalarni egallashini ham ko'zda tutadi. SHu borada mahalla ijtimoiylashuvining unikal mexanizmi hisoblanadi. CHunki unda:

- har bir inson amal qilishi kerak bo'lган muayyan axloqiy qonunlar ishlab turadi;

- muomala bir qator axloqiy tamoyillarga asoslanadi;

- hokimiyatga ishonch va xizmat, shaxsiy namuna kuchi kattalarga hurmat, bolalar haqida g'amxo'rlik;

- axloq va jamoatchilikning tarbiyasi amaliy faoliyatga kiritish orqali amalga oshiriladi;

- ommaviy ong qadriyatlari mahalladan oila va shaxsga uzaytiriladi;

- alohida shaxs hayotining asosiy bosqichlari jamoaning barcha a'zolari tomonidan kuzatuvda bo'ladi.

Alohida tarixiy davrlarda an'anaviy hayotiy muammolarning buzilishiga urinishlar amalga oshirilishiga qaramay, mahalla bunga qarshilik ko'rsatdi va an'ana, odatlarning saqlanib qolishiga yordam beradi.

Mahallaning ijtimoiy o'mni shunda namoyon bo'ladiki, u doimo jiddiy ijtimoiy o'zgarishlarga o'z munosabatini bildirgan va oliy insoniy va axloqiy tamoyillarga tayanadi. Masalan, XXasrning 20-30 yillarda mahalla ayollarning

ijtimoiy ishlab chiqarishga qo'shilishi, savodsizlikni bartaraf etish, aholining madaniy dunyoqarashini kengaytirish qo'llab-quvvatlangan

Hammaga mahalla aholisining Rossiya, Ukraina, Belorusiyadan evakuatsiya qilinganlarni qabul qilganliklari dalili yaxshi ma'lumdir. Mahalliy aholi vakillari ko'chib kelganlarga o'z uylarining bir qismini berishgan, moddiy yordam ko'rsatishgan. Mahalla jamoalari nihoyatda yuqori axloqiy va ijtimoiy salohiyatga ega, ular odamlarga yaxshi niyatilik, o'zaro hurmat, o'zaro tushunish kabi hislatlarni tarbiyalashadi.

Mahallaning an'analarni saqlab qolish va ularni yoshlarga yetkazish jamiyatni demokratiyalashning ilk davrlarida milliy qadriyatlarning tiklanishiga katta yordam bergen. Yangi sharoitlarda mahalla o'z-o'zini boshqarish organi sifatida yangi mazmun va ahamiyatga ega bo'ldi. Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov<sup>15</sup> tomonidan ham ta'kidlangan.

Mahalla maktablarining yuqori sinf o'quvchilarning ijtimoiy va ma'naviy qiyofalari ham ancha o'zgarib qoldi. Ularning aksariyati muassasa, maktablarda tashkiliy ish tajribasiga egalar. Oqsoqollarning aksariyat qismi savodxon, ularning ba'zilari ilmiy darajaga egadirlar. Mahalla insonlarning axloqiy birlashuvi markazi bo'lishni davom ettirmoqda. Bu avvalambor, mahalla qo'mitalari faoliyatlarining asosiy yo'naliшlaridan biri ijtimoiy mehnatlarni, shu jumladan obodonlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilishda namoyon bo'ladi. Bunaqa ishlarning asosiy turlari-ariqlarni tozalash, daraxtlarni kesish, axlatni chiqarish bo'yicha hasharlardir. Bunaqa tadbirlar asosan Navro'z, Amazon, Qurban hayatlari, Mustaqillik kunlari oldidan o'tkaziladi. Hashar yo'li bilan uylar, klublar, oshxona, masjidlar bunyod etilmoqda.

Eng muhim an'analardan biri mehr-muruvvat bo'lib, u quyidagi qiyofalarda namoyon bo'ladi:

---

<sup>15</sup> "Mahalla" xayriya jamg'armasini tuzish to'g'risidagi 1992- yil 12 sentyabrdagi hamda "Mahalla" xayriya jamg'armasiga mablag' ajratish to'g'risidagi 1992- yil 8-oktyabrdagi farmonlari, 1993-yil 2 senyabrdagi "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi "O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilinishi yorqin misol bo'ladi".

-jamoaning g'amxo'rligi, qo'shnilarining kasal, keksa va kam ta'minlanganlariga yordam ko'rsatishadi;

-o'ziga to'q kishilarlarning kam ta'minlangan qarindoshlariga va qo'shnilariga moddiy yordam berishlari;

-oqsoqol va mahalla qo'mitasi tomonidan boquvchisini yo'qotgan va qariyalarga yordam ko'rsatishi va boshqalar.

Bularga misol qilib, 50-yillarda "Yangiobod" mahallasida aholining yordami bilan klub bunyod etilib, unda ma'ruza, kontsert, kechalar o'tkazilgan. Bu ishlarda o'qituvchilar, san'atkorlar faol ishtirok etishgan

Jamoada yordam ko'rsatish an'anasi hozir yangi shakllarga ega bo'ldi va hokimiyatlar, mahalla qo'mitalarning asosiy vazifasiga aylandi. Respublika Prezidentining (1994 yil 23 avgust) "Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyasini kuchaytirish chora-tadbirlari" haqidagi farmoni bilan aholini ijtimoiy himoya qilishning yangi turi joriy qilindi: kam ta'minlangan oilalarga har oy ko'rsatiladigan yordam. Bu yordamning yangiligi shundaki oilalar taqsimotini mahalla hal qiladi. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari 1999 yil yanvarda Ozbekiston Prezidentining hamda Vazirlar Mahkamasining 2002-yilyanvardagi "Aholining ijtimoiyhimoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashining 2002-2003 yillarda mo'ljallangan dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori talablarini amalga oshirmoqdalar. "Fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organlarining aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash" to'g'risidagi farmoni chiqdi

Xozirgi kunda mahalla jamiyatda etnomadaniy qadriyatlarni tiklash jarayonida muhim rol o'yynamoqda. Nikoh, janoza, aqiba to'yi, sunnat to'yi, muchal to'yi kabi marosimlar ham o'tkazilmoqda.

Bozor munosabatlarini shakllantirishning murakkab holatida mahallaning o'quvchilarning ekologik tarbiyasidagi roli oshib ketadi. Bu avvalambor oila qadriyatlarini saqlab qolishda namoyon bo'ladi. Nizoli holatlar paydo bo'lganda xotin-qizlar qo'mitasi yoki mahalla oila vakillari bilan suhbat o'tkazadi va odatda vaziyatga oydinlik kiritadi va ajralishlar bo'lishiga olib keladi. Bundan tashqari

mahalla ishsizlarga ishga joylashishlariga, militsiya hodimlariga tartibni saqlashda yordam beradi, xizmatga chaqirilganlar bilan tushuntirish ishlari olib boradi. Avvalgiday jamoa o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashda muhim o'rinni tutmoqda. Hozirda mahalla bolalar bog'chalari va maktablari bilan yaqin hamkorlik olib borib, ularga ta'mirlash ishlarini olib borishda, tarbiya ishlarida yordam ko'rsatadi. Mahalla qo'mitasi majlislarida maktab intizomining jiddiy buzilishlari ham ko'rib chiqiladi. Yoshlarga ta'sir ko'rsatishning bu rasmiy tarmoqlaridan tashqari jamoani nazorat qilishning an'anaviy usuli ham saqlanib qolgan. Har qanday mahallada boy hayotiy tajribaga ega odamlar mavjud. Ularning asosiy vazifasi aholining an'anaviy ahloq-odob qoidalariga rioya qilishlarini, bolalarning ko'chadagi yurish-turishini nazorat qilishdir. Ular har qanday odamga tanbeh berishlari mumkin, biroq bu ishni doimo ularning hurmatini saqlagan holda amalga oshiriladi. Ota-onalarning bunday munosabatni qadrlashitaqsinga sazovor. SHuning uchun "mahalla sening ham otang ham, onang" degan maqol mavjud. Boshqa sohalarda namoyon bo'ladicidan milliy tiklanish, xalqning milliy o'z-o'zini anglashni faollashtirish orqali bo'ladi. Bu ayniqsa, hayotning an'anaviy turmush tarzini saqlab kelayotgan eski shahar mahallalarida yashovchilar orasida yaqqol namoyon bo'lgan. Mahalla fuqarolarining yuqori savodxonlik va madaniy darajasi (yosh va o'rta avlod, o'rta yoki oliy ma'lumotga ega) badiiy ijodning keng rivojlanishi, hayotning marosimlar o'tkazishda ma'naviy o'z-o'zini ifodalashning keng imkoniyatlarini ko'zda tutadi.

SHuni ta'kidlash joizki etnik an'analar va marosimlarning tiklanishida avvalo, oiladagi katta avlod, shuningdek ommaviy axborot vositalari, ayniqsa televidenie katta o'rinni tutadi.

Hozirgi kunda mahallaning ahamiyati oshib bormoqda. Biroq yoshlar tarbiyasida muammolar kam emas. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarning axloqiy tarbiyasiga xalaqit beradigan bir qancha holatlar ham kelib chiqmoqda. Yoshlarning yoshligidanoq savdo-sotiq qilishga va boshqa tijorat ishlariga sho'g'ib ketishi ularning o'qishiga, bilim olishga bo'lgan intilishlariga, ijtimoiy munosabatlarga kirishishga, salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ba'zi hollarda muallimlar

o'quvchilarni to'liq tarbiyalash imkoniyatidan mahrumdirlar, ya'ni ular boshqa faoliyat bilan ham shug'ullanadilar. Jamiyatni demokratiyalashtirishning mazkur bosqichida yoshlar katta imkoniyatlarga, faoliyat turini tanlashda keng imkoniyatlarga ega bo'lishdi. Biroq ular bulardan to'liq foydalana olmaydilar. So'ngi yillarda yoshlar orasida siyosiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish susaydi, din ta'siri kuchaydi va bu natijada yoshlar mafkuraviy sohada o'z mo'ljallarini yo'qotishlariga olib keldi. Mahalla oldida tarbiyaning an'anaviy usullaridan foydalananib yosh avlod bilan yanada faol ish olib borish, ularda hozirgi jamiyat talablariga muvofiq keladigan dunyoqarash va axloqiy tamoyillar thosil qlishdan iborat.

Mahalla azaldan nafaqat o'sib kelayotgan avlodning tarbiyachisi vazifasini bajargan, balki ijtimoiy fikrni shakllantirgan ham. Qo'shnilar o'rtasidagi barcha nizoli holatlar, shuningdek esa oilaviy janjallar mahalla qo'mitalari faollari tomonidan muhokama qilinadi. Bular orasida ko'pincha qaynona-kelin, yosh kelin-kuyovlar orasida janjallar ko'p uchraydi. Bunaqa holatlarda xotin-qizlar qo'mitasi suhbat o'tkazadi. Agar ikki tomonni yarashtirib bo'lmasa, bu holat bilan mahalla qo'mitasi shug'ullanadi. Odatda o'sha joyning o'zida muammo hal qilinadi. SHuning uchun ajralishlar soni ko'p emas. So'ngi paytlarda uy xo'jaligi bilan band ayollar, yosh oilalar bilan ishslash faollahshdi, ularni an'anaviy kasb-xunarlarga o'rgatish ishlari olib borilmoqda. Mahalla ishsizlarning ishga joylashishilariga ham ko'maklashmoqda. Xarbiy qo'mitalar askarlikka olishga tanlov bo'lganda mahalla faolligiga tayanishadi.

1999 yil 14 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari haqida"gi qonuni yangi taxrirda qabul qilindi. Unda yana bir marta fuqarolarning o'z-o'zini boshqarishi asosida tarixiy taraqqiy xususiyatlari, milliy va ma'naviy qadriyatlar, mahalliy odat va an'analar yetishi ta'kidlandi. Qonunda mahallaning vazifalari belgilab qo'yilgan. Yuqorida sanab o'tilgan funktsiyalardan tashqari mahallaga yangi vazifalar-tijorat va maishiy xizmat ko'rsatishni, hududning tozalik holatini, aholidan soliqlarning o'z vaqtida topshirilishini nazorat qilish ham yuklatildi. Davlat mahallaga avval mahalliy

kengashlar bajargan vazifalarni yuklamoqda. Bu esa mahalla qo'mitalari davlat tuzilmalariga aylanayotganligidan guvohlik beradi.

Mahallaning ijtimoiy hayotida so'nggi o'n yillarda katta o'zgarishlarni boshdan kechirgan qo'shnichilik munosabatlari muhim o'rinni tutmoqda. Oilaviy muhitning individuallashuv jarayoni ketmoqda. SHu bilan birga yaqin qo'shnichilik munosabatlari o'zbek oilasining qadriyatlaridan biri bo'lib qolaveradi. Bu avvalombor xo'jalik yordamida, bolalar tarbiyasida, qiyin vaziyatlarda yordam ko'rsatishda namoyon bo'lmoqda. SHuning asosida ma'naviy yaqinlik paydo bo'ladi, ya'ni kundalik axborot almashinushi, mahalladagi voqealar muhokamasi bo'lib o'tadi. SHu tarzda mahalladagi eng kichik guruhlardan biri - qo'shnichilik guruhi paydo bo'ladi.

Mana shu guruh bilan bir qatorda qarindoshlik aloqalari ham mavjud. Ular hozirda avvalgidan ko'ra kamroq bo'lsada, uning a'zolarining faol o'zaro yordami bilan xarakterlidir. Qarindoshlik munosabatlari o'zbeklarning oilaviy qadriyatları tizimida hali ham birinchi o'rinda turadi.

O'zbeklarning ijtimoiy hayotidagi muhim hodisalardan biri erkaklar birlashmalari-gap, gashtak, ziyofatdir va ularning maqsadi bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishdir. Har bir yosh guruh o'zining muomala shakliga ega: Qadimda Toshkentda gaplar ommaviy xarakterga ega bo'lган. Ular hosil yig'im terimi yakunlangan kuzgi-qishki davrda o'tkazilgan. To'qmada erkaklar har kuni birlarining uyida to'planishgan va har kim qo'lidan kelganini olib kelgan. Buning hammasi "umumiylig qozon"ga solingan. O'zlari taom tayyorlashgan, o'zlari uy yig'ishtirishgan, namoz o'qishgan, suhbatlashishgan, axborot almashishgan.

Tuqmadan farqli o'laroq, gap haftada bir marta odatda juma kunlari ishtirokchilardan birining uyida o'tkazilgan. Har bir gapda saylangan rahbar va ishtirok etish qoidalari bo'lган. Qoidabuzarlar gapdan chetlashtirilgan. Ziyofat xarajatlarini mezbon ko'targan. Namoz va diniy adabiyotlar uchun odamlarni qamashishgan XX asrning 30- yillarida gaplarda to'planish havfli bo'lган. II jahon urushi davrida moddiy qiyinchiliklar ham gaplar o'tkazilmasligiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Biroq gaplar XX asrning 50-60 yillarida asta-sekin tiklana boshladi.

Biroq bu gaplar biroz boshqacha edi. Avvalo, endi ayollar orasida ham gap tashkillashtirildi. Hozirda ayollar gaplari erkaklarnikidan ko'ra keng tarqalgan. Oilaviy gaplar, avvalombor sinfdoshlar, kursdoshlar orasida, shuningdek kasbiy gaplar ham ommabopplashdi.

Gaplarning ijobiy xususiyatlari bilan birgalikda ularda salbiy jihatlar ham mavjud. Bu isrofgarchilik va ichkilik bilan bog'liq. Kitoblar mutoosalasi, mazmunli suhbatlar tan olinmay kelindi. Avvalgilaridan farqli ravishda hozirgi gaplar yil davomida o'tkaziladi. To'y paytida gap ishtirokchilari to'y egasiga yordam ko'rsatishadi. Ular og'aynilarini qiyin kunlarda qo'llab-quvvatlashadi. Har bir gapning shuhrati bor. Insonni, ayniqsa yoshlarni qaysi gapga a'zo bo'lganidan u qanaqa tarbiya olganini aniqlasa bo'ladi.

Ayollar orasidagi gaplar XX asrning 60-70 yillarida keng rivojiana boshladi. Bu mahalladagi qo'shnilarining birlashmasi edi. Biroq ishtirokchining yoshi inobatga olingan. Har bir mahallada o'rta yosh ayollar, yosh ayollar (asosan kelinlar)ning birlashmalari mavjud bo'lgan.

Yaqin qarindoshlar orasidagi gaplar ham keng tarqalgan. Odatda bunda yoshi eng ulug' ishtirokchi rahbar bo'ladi. Bunday gaplarga ayollar farzandlarini ham olib kelishgan.

SHuningdek oilaviy gaplar ham paydo bo'ldi. Ularda erkaklar o'z xotinlari bilan ishtirok etishadi. Bu gaplar sinfdoshlar yoki kursdoshlar gaplari sifatida boshlangan va keyinchalik har uylangan a'zo o'z xotinini ham olib kela boshlaydi. Bu gaplar umumiy qoidalar asosida mavjud bo'lib, nihoyatda kam uchraydi.

O'rta va katta avlod ayollar o'rtasida to'planishning boshqa shakllari ham mavjud. Bular mushkul kushod va mavlud kabi diniy marosimlar bo'lib, ular so'nggi yillarda Toshkent mahallalarida ochiq-oydin o'tkazilmoqda. Mavlud yoki mushkul kushodga to'planishgan ayollar nafaqat diniy marosimlarda ishtirok etishadi, balki muomalaga kirishishi imkoniyatiga ham ega bo'lishadi. Hayotning eng yaxshi axloqiy me'yor va tamoyillarining tiklanishi fanda hayotning ba'zi eskirgan jihatlarini yangilashga, ayollar erkinligi va huquqlarini cheklashga ham urinishlar bo'ldi.

Mahalla hozirda zamonaviy jamiyat hayotining ijtimoiy tizimida o'z o'rnnini topgan. Milliy va etnik an'analarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston siyosati bu an'anaviy institutning yanada faol faoliyat yuritishiga yangi zaminlar yaratdi.

### **2.3. O'quvchilar ekologik madaniyati shakllanishining aqliy tarbiya jarayoni bilan uyg'unligi**

O'quvchilar ilmiy ekologik dunyoqarashini kengaytirish uchun avvalo, ular ongida ilmiy izlanish haqidagi tushunchani paydo qilish lozim.

Ilmiy izlanish ilmiy tadqiqotning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, yangilikni topishga qaratilgan faoliyatdan iborat.

O'quvchi yoshlarga ilmiy izlanish haqida tushuncha berishda ularning intellektual salohiyatlari bo'lishligini (aqlli, ongli, ilmli, bilimli, ijodga intiluvchan, ekologik fikrlash doirasi kengligi, xulosalash qobiliyati yuksakligi, yangi fikrni qadrlashi, yangilikni ijodiy daraja sifatida sezalishligi va h.k.) va ijodiy jasurligini hamda qat'iyat bilan yangilikka intilishi lozimligini keng miqyosda tushuntirish lozim. Bunda ijodkor talaba o'z zamonasining ilg'or ekologik g'oyalari bilan qurollangan bo'lishligi ham ilmiy izlanish samaradorligini oshirishda muhim asos bo'ladi.

Ilmiy izlanish jarayonini fan oldiga, ilm ahli oldiga, bashariyat oldiga ilmning ekologik maqsadlari sari rivojlantirishga oid maqsad va vazifalarni qo'yadi. Quyida ularning ba'zilarini keltiramiz:

- kishilik jamiyatida hayotni yaxshilash sari intilishdagi olovning va o'z navbatida unga mos gugurtning paydo bo'lishi;
- ish quollarini takomillashtirishga bo'lgan zarurat orqali metallarga ishlov berish yo'naliشining paydo bo'lishi;
- ma'lumotlarni saqlash, to'plash va uzatish zarurati tufayli yozuvning paydo bo'lishi, qog'oz, kitob, bosmaxona va shu kabilarning vujudga kelishi;
- energiyaning bir turdan ikkinchi turga aylanishi muammosini hal qilish orqali ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi buyuk o'zgarishlarning yuzaga kelishi;

- «atom»ning paydo bo’lishi, rivojlanishi va ulardan tinchlik maqsadlarida foydalanishi;
- «uchar gilam» - aviatsiya orqali kishilarning uzog’ini tezkorlik bilan yaqin qilinishi;
- «oynai jahon» - televideniening kishilik jamiyatining turli jabhalariga keng kirib borishi;
- zamonaviy kompyuterlarning paydo bo’lishi orqali tezkor hisoblashlarga bo’lgan talablarning qondirilishi;
- «Inson-mashina» tizimining hayotimiz turli jabhalariga keng joriy etilishi va h.k.

Bugungi kunda kibernetika va mantiq fanlari oldiga «Sun’iy tafakkur»ni shakllantirish muammolari qo’ymoqda.

O’quvchilar ekologik dunyoqarashini kengaytirish ekologik ta’lim-tarbiya jarayonining turli jabhalarida amalga oshirish mumkin. Buning uchun har bir fan rivojlanishidagi ilmiy asarlarni qayd qilib o’tish va talabalarni ilmiy izlanish jarayoniga e’tiborini qaratish yetarli. Bularni o’quvchilarga mustaqil topshiriq berish orqali bиринчи kursdan boshlash kerak va ushbu jarayonning uzlucksiz ketma-ketligini quyidagicha amalga oshirgan ma’qul: talabalarga o’rganiladigan bilim, tushuncha, ko’nikma va malaka yuzasidan ma’lumotlar to’plashni (ma’lumotlar bankini hosil qilishni) va ularni axborotlar ko’rinishiga keltirishni o’rgatish. Bunda kutubxonadagi kartoteka va ular asosida adabiyotlar ro’yxati tuziladi hamda o’rganilgan fanlar bo’yicha bilimlar, tushunchalar, qonunlar, qoidalar, ko’nikma va malaka tizimlari yaratiladi. Talaba undan keyingi intellektual salohiyatini kengaytirishda muntazam ravishda foydalanishga qulay holga keltirish imkoniyatiga ega bo’ladi; o’rganilishi kerak bo’lgan adabiyotlarning annotatsiyasi yoki referati haqida ma’lumot berish, buni fan o’qituvchilari o’z fanini o’rgatishning dastlabki bosqichida, ya’ni fanning maqsad va vazifalari hamda pretmetlarini bayon qilish paytida amalga oshirsa bo’ladi, yoki bu jarayon ilmiy ijodiyot to’garaklarining bevosa vazifasidir; talabalarga aniq mavzu bo’yicha referat yozishni topshirish orqali ham amalga oshiriladi; ilmiy

to'garaklarga ilmiy mavzular orqali qatnashish; talabalarning kurs ishlari (loyihalari)ni tayyorlashga qatnashishi; muayyan fanga oid ilm-fan va texnika-texnologiyalarga bog'liq ilmiy qadriyatlarni yig'ish va ularni bir tizimga keltirish; ilmiy tushunchalar va fikrlar (g'oyalar) bilan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarga qatnashish uchun ma'ruzalar tayyorlash; ilmiy seminarlarga faol qatnashish; ilmiy qadriyatlarning ijtimoiy moddiy qadriyatlarga aylanishi monitoringini olib borish; bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda qatnashish va h.k.

O'quvchilar ekologik dunyoqarashini kengaytirishning qayd etilgan uzluksizligida tegishli topshiriqlar berishda o'tiladigan fanlar mazmuniga ko'proq e'tibor berishga to'g'ri keladi, chunki oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ilmiy dunyoqarashi asosan o'qitiladigan fanlar mazmunlari va ularga tegishli ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari asosida shakllanadi.

O'quvchilar ekologik dunyoqarashini kengaytirish ilm-fan, ta'lim-tarbiya va texnika-texnologiyalarning muntazam rivojlanish natijalari ta'siri ostida ro'y beradi. Bunday jarayonda texnika-texnologiyalar muntazam ravishda takomillashib, rivojlanib bormoqda va natijada shunga mos yetuk mutaxassislar tayyorlash zarurati ham tug'ilmoqda. Bunda talabalar ekologik dunyoqarashi va uning axborotli ta'minotining tadqiqiy va texnikaviy yechimlaridan boshlab olingan natijalarni amaliyotda qo'llashgacha bo'lган barcha bosqichlarni samarali amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishga yangi axborot texnologiyalarini joriy etishga keng imkoniyatlar yaratuvchi ko'makchi kompyuterli tizimni quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiq

Ushbu ko'makchi kompyuterli tizimning afzalligi shundaki, bunda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda quyidagi imkoniyatlar kafolotlanadi:

- fanga oid ilmiy dunyoqarash va ular asosidagi aqliy tarbiyaga oid tushunchalarni umumiyl dastur asosida kompyuter vositasida o'rganish imkoniyatining mavjudligi bo'lajak mutaxassislarning mustaqil ishlashi uchun optimal variantlarni qo'lga kiritish imkonini beradi;

- ko'makchi kompyuterli tizim bilan muntazam shug'ullanish bo'lajak mutaxassislarining ilmiy dunyoqarash va aqliy tarbiyaga oid bilim, ko'nikma, malakalarini kompyuterlarda mustaqil shakllantirishlariga erishishlarini kafolotlaydi va bu o'z navbatida ular bilan qo'shimcha qiziqarli mashg'ulotlar olib borishga imkoniyat yaratadi.

Ko'makchi kompyuterli tizimdan talabalarga «ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va o'quvchilarga aqliy tarbiya berish» bo'yicha bilim berishda bevosita foydalanish mumkin, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarini tayyorlashdagi fanlardan ham talabalar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishda foydalanish mumkin. Bu orqali ta'limda innovatsion texnologiyalar va kadrlar tayyorlashning jahon andozalari talablariga javob beradigan variant kafolotlanadi.

O'quvchilar dunyoqarashini kengaytirishda, shu jumladan ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda «O'qing qiziq», «Eng, eng, eng» kabi sarlovhalarda haftalik devoriy gazetalarning o'mi beqiyos bo'lib, ulardagi ma'lumotlar ko'proq kasbiy faoliyat sohasiga tegishli bo'ladi.

«O'qing qiziq» sarlovasiga tegishli ma'lumotlarni topishni talabalarning o'ziga yuklash maqsadga muvofiq, chunki talaba bu orqali izlanishga o'rganadi va shu sohadagi ko'nikma va malakalari shakllanib boradi. Albatta talaba bu sohadagi ishlarini samarali tashkil qilish uchun o'qituvchi ko'rsatma berishi lozim, aks holda talabada bu sohadagi ishtiyoq so'nishi mumkin va ko'rsatma berishda ko'proq «U kim, bu nima» va shunga o'xhash har xil entsiklopediyalar, gazetalarda «O'qing qiziq» va qiziqarli xabarlar, «Turfa olam» hamda «Fan va turmush» kabi jurnallarni tavsiya etgan ma'qul. Bunda albatta ixtiyoriy ma'lumotlarni to'playverish emas, yuqorida ta'kidlangandek kasbiy faoliyatga yuksaltirish asosiy diqqat markazida bo'lmos'h'i lozim.

Ekologik dunyoqarashni kengaytirishga intellektual o'yinlar (Aql-zakovat, Intellektual ring, O'yla, izla top kabilarning o'rni beqiyos.

Umuman olganda barcha darslarda o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish mumkin. Unda faqat o'qituvchidan pedagogik mahorat talab etiladi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarlardan samarali foydalanish yo'llaridan xabardor bo'lishi

zarur. Bularda muammoli ta’limga ko’proq e’tibor berib, zamonaviy pedagogik texnologiyalardagi «Aqliy hujum», «Tahliliy fikr», «Tizimli tahlil» kabi yo’nalishlardan samarali foydalanish zarur.

Tabiiyki, o’quvchilar dunyoqarashini biror uslub yoki metodlarda emas, balki zamonaviy interfaol usullar, turli o’yinlardan zakovat, intellektual ring kabilardan foydalanishsa foydalan xoli bo’lmaydi.

Bugungi kunning dolzARB masalalaridan yana biri barcha fanlarni o’qitishda zakovat, intellektual ring kabi o’yinlardan foydalanishsa, talabalar ilmiy dunyoqarashi, salohiyatini oshirish, mutaxassislarni tayyorlash, ularning sifatini mukammallashtirish vazifasidan iboratdir.

Har qanday kishida muhim bir bezak bor. U insondagi aql va unga mos odob go’zalligidir. Ushbu go’zallik kishiga hayotda o’z o’rnini topishda muhim ma’naviy asosdir. Quyida ular bilan bog’liq ma’lumotlarni keltiramiz:

Aql – kishining o’z idroki, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o’z faoliyatida ma’naviy-insoniy nuqtai nazardan amal qilishdir.

Aql – inson kamolotining harakatlantiruvchi kuchi bo’lib, uning yordamida odam hayotda o’z o’rni va nufuziga ega bo’ladi. Aqlning dalili – fikrdir.

Aqliy tarbiya – tabiatan berilgan aqliy kuch, ruhiy holat, biluvchanlik va faoliyat erkinligini rivojlantirish natijasida insonda mustaqil fikr yuritib, oldiga maqsad qo’ya olish hamda ko’zlagan maqsadiga yetish qobiliyatini shakllantirish.<sup>16</sup>

Aqliy tarbiya shaxs intellektual salohiyatini yuksaltirishning asosiy negizini tashkil etadi. Bu borada xalq ta’limi quyidagi muhim bo’lgan uchta funktsiyani bajaradi:

1. Kishilarni zamonaviy ilm-fan asoslari bilan quollantirish.
2. Inson shaxsining intellektual salohiyatini taraqqiy ettiradi, uni aqliy, ma’naviy, axloqiy va badiiy jihatdan rivojlantiradi, har tomonlama barkamol inson bo’lib shakllanishiga yordam ko’rsatadi.

---

<sup>16</sup> Ziyomuhhammadov B. Pedagogika. Toshkent: Turon – Iqbol, 2006. – B. 112.

3. Mamlakat ish kuchini takror ishlab chiqaradi. Hozirgi zamonda cheklangan, noyob resurslar sharoitida mamlakat xalqining o'sib borayotgan ehtiyojlarini samarali qondira borish muammosini hal etishda ham xalq ta'lim tizimi o'quvchimuhim rol o'yaydi.

Yuqoridagi ma'lumotlarni e'tiborga olib aqliy tarbiyaning maqsadini quyidagicha ifodalash mumkin.

O'quvchilar aqliy tarbiyasidan asosiy maqsad inson shaxsining ma'naviy va intellektual salohiyati negizida ularning dunyoqarashini yuksaltirish, e'tiqodini mustahkamlash va ezgulik hamda aqliy go'zalligi kabi ko'nikmalarini shaxs sifatiga aylantirishdan iboratdir.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda bir qator muammolar yechimlarini belgilab olishga to'g'ri keladi, ya'ni aqliy tarbiya yordamida bajariladigan vazifalar aniqlanadi. Ular quyidagilar:

1. SHaxs tarbiyasidagi iste'dodni yuksaltirishga e'tiborni qaratish.
2. SHaxs tarbiyasida ma'naviy qadriyatlardan foydalanishga erishish.
3. Aqliy tarbiyada intellektual salohiyatga e'tibor.

Aqli odam egallagan bilimlarga amal qilib qanday faoliyat yuritishini biladi. Dono odam esa nima qilmaslik kerak ekanligini ham biladi. Ya'ni, aqli odam muammoli vaziyatdan oson chiqib ketsa, dono odam bunday holatga umuman tushmaydi.

Aqli odam - bu buyuk yaratuvchilikka, olamni obod qilishga, kishilarning mushkulini oson qilishga, jamiyat va davlat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga, odamlar o'rtaсидаги insonparvarlikni yuksaltirishga xizmat qilib, o'zini ham inson kamoloti bosqichlariga erishishga surunmay, to'qnashmay borishini ta'minlay oladi va ular bugungi yoshlarimiz tarbiyasida ibrat-namuna bo'la oladi.

Dono odam - bu aql-zakovatli bo'lishi bilan birga, oqil va donishmand insondir.

4. O'quvchi-yoshlarga aqliy tarbiya berishda intellektual mulkka tegishli tushunchalardan foydalanishga e'tiborni qaratish.

O'quvchi-yoshlarga aqliy tarbiya berish ong, fikr, ilm, tafakkur, idrok qilish kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini bilishni talab qiladi va bular o'z navbatida talaba-yoshlarga aqliy tarbiya berishdagi ma'lumotlar tushunarli hamda ishonchli bo'lishiga imkoniyat yaratadi. SHu sababli ham bilish haqidagi tushunchalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida qisqacha ma'lumotlarni keltiramiz.

Ma'lumki, fan-dunyo (tevarak – atrof - muhit) haqidagi ob'ektiv bilimlar majmui. Bilimlar esa o'qish, o'rganish va tajriba yoki amaliyat orqali shakllanadi.

Bilim tushunchasi keng qamrovli, shu sababli uning ta'riflarini har xil ko'rinishda uchratish mumkin, ammo ularda ifodalanayotgan mazmun-mohiyat umumiyyidir. Ulardan ba'zilarini keltiramiz.

«Bilim – kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilingan ma'lumotlaridir va yana bilim ob'ektiv borliqning inson tafakkurida aks etishidir»<sup>17</sup>.

«Bilim – ijtimoiy moddiy va ruhiy faoliyatning mahsuli: ob'ektiv xususiyatlar va olam tabiiy va insoniy aloqalarning belgili shakldagi ideal ifodalanishi».<sup>18</sup>

«Bilim - odamlarning predmetlar va jamiyatni bilish (tasavvur etish, tushunish) mahsuli».<sup>19</sup>

«Bilim-tabiat, jamiyat va tafakkurning qonuniyatları to'g'risidagi ilmiy tushunchalarning yaxlit va sistemalashtirilgan yig'indisidir».<sup>20</sup>

Bu ta'rif umumnazariy qoidalar asosida ifodalangan ta'rifdir va uning yordamida ilmiy bilim haqida ham tushuncha hosil qilinadi.

O'quvchi -yoshlarga aqliy tarbiya berishda ularning axloqiy jihatlari muhim asoslardan biridir. SHu o'rinda o'quvchi yoshlarning ongli intizomi to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirish lozim.

<sup>17</sup> Muxamedov G.I., To'raqulov X.A. Zamonaliv pedagogik tadqiqotlarning ilmiy-nazariy asoslari.–Toshkent:Fan, 2004. – B. 230.

<sup>18</sup> Falsafa: qomusiy lug'at. –Toshkent: SHarq, 2004. – B. 445.

<sup>19</sup> Pedagogicheskaya entsiklopediya. –M.: Sovetskaya entsiklopediya, 1968. T-3. -515 str.

<sup>20</sup> Kandakov N.I. Logicheskiy slovar–spravochnik. – M.: Nauka, 1975. -720 str.

Ijtimoiy jamiyat hayotini tartibli kechishini ta'minlash maqsadida ekologik hamda huquqiy me'yorlar qabul qilingan. Ijtimoiy-axloqiy me'yorlar omma tomonidan yaratilgan bo'lib, unda muayyan millat (elat, qabilalar yoki etnik guruhlar) kishilarining turmush tarzi, hayotiy yondashuvlari, o'y-fikrlari, dunyoqarashlarini namoyon etuvchi talablar aks etadi. Ijtimoiy-axloqiy me'yorlar omma fikri asosida tartibga solinadi.

Jamiyat ijtimoiy hayotida muhim o'rinni tutuvchi ekologik -huquqiy me'yorlar esa davlat tomonidan qabul qilinib, tegishli qonun aktlari asosida tartibga solinadi. Ekologik -axloqiy me'yorlarga amal qilishda ixtiyorilik tamoyilining ustunligi ko'zga tashlansa, ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga amal qilish majburiylik xususiyatiga egadir.

Ekologik intizom – ijtimoiy-axloqiy va huquqiy me'yorlarga nisbatan ongli yondashuv, ularga to'la amal qilish demakdir. Boshqacha talqin etiladigan bo'lsa, intizom-shaxs faoliyatining ijtimoiy-axloqiy hamda ijtimoiy-huquqiy me'yorlari talablari asosida tashkil etilish ko'rsatkichi canaladi. Ongli intizom tushunchasi esa shaxs faoliyatining ijtimoiy-axloqiy hamda ijtimoiy-huquqiy me'yorlar talablari asosida aqliy quvvatga tayangan holda tashkil etilish ko'rsatkichidir. Ongli intizom tarbiyasi –o'quvchi yoshlar tomonidan intizomning mohiyati, uning ijtimoiy jamiyat hamda shaxs hayotida tutgan o'rnini to'g'ri baholash, shuningdek, ijtimoiy-axloqiy va ijtimoiy-huquqiy me'yorlar talablariga ongli munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. O'quvchi-yoshlar o'rtasida ongli intizom tarbiyasini tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- Ekologik-axloqiy va ekologik-huquqiy me'yorlar mohiyatini o'quvchilar ongiga singdirish, ongli intizom tushunchasini qaror toptirish.
- O'quvchilar tomonidan ekologik burch mohiyatining o'zlashtirilishiga erishish.
- O'quvchilarda ekologik burchni ado etish jarayonida ongli va ixtiyoriy faoliyatini tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

• O'quvchilarda kundalik hayotiy rejim asosida ekologik faoliyatni tashkil etish ko'nikmasini hosil qilish.

• O'quvchilarda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish (mehnat va dam olish faoliyati, aqliy va jismoniy mehnat faoliyati o'rtasida o'zaro ekologik mutanosiblikning qaror topishiga erishish) ko'nikma va malakalarini hosil qilishga erishish.

• O'quvchilarda ta'lif muassasasi ichki va ekologik tartib-qoidalariga bo'yishni shakllantirish.

Ta'lif muassasalarining muhim vazifalaridan biri – yosh avlodni ongli ekologik intizom ruhida tarbiyalashdir.

Ta'lif muassasalarida o'rnatilgan ekologik intizom ta'lif muassasalari jamoasini jipslashtirish, ta'lif muassasasi ichki hayoti va faoliyatining mo'tadil kechishini ta'minlaydi. Intizom talabalardan hamjihatlik asosida faoliyat olib borish, o'quv yurti manfaati uchun birgalikda kurashish, rahbariyat hamda vakolatli talabalar organlari, uning a'zolari talablarini to'g'ri talqin etish va ularning bajarilishini talab etadi.

O'quv yurtida qaror topgan ongli ekologik intizom talabalar faolligi va tashabbuskorligining o'sishiga yordam beradi. SHuningdek, ongli intizom o'quvchilarining o'qish va mehnat faoliyatiga ongli munosabatda bo'lismay, o'quv yurti ichki tartib-intizomiga bo'yishni, jamoa tomonidan berilgan topshiriqni bajarishga vijdanan yondashgan holda xulq-atvor me'yorlariga qat'iy rioya etish zarurligini tushunib olishlari va ularga o'z ixtiyorlari bilan itoat etish ko'nikmalarining hosil bo'lishiga sharoit yaratadi.

Ta'lif muassasalarida ekologik intizomlilik xislatining hosil bo'lishi uchun ta'lif-tarbiya ishlarining sifatini yaxshilash, ularning samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Ongli ekologik intizom jamoa yordamida olib borilgan tarbiyaviy ishlarning natijasi bo'lib qolmay, ayni vaqtda, tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Intizom ko'rsatkichi qanchalik yuksak darajaga ko'tarilsa, uning tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Ekologik intizom ko'rsatkichi qanchalik yuksak darajaga ko'tarilsa,

tarbiya vositasi sifatidagi ta'siri shuncha ortib boradi. Ekologik intizomli jamoa o'z a'zolarini ichki tartibga rioxalishga, muayyan xulq me'yorlariga amal qilishga, talabalar topshiriqlarini bajarishga, o'z tengdoshlariga namuna ko'rsatishga, ijtimoiy burchni anglashga o'rgatadi. Bunday jamoada talaba noto'g'ri harakat qilsa, uning xatosi ko'rsatiladi, natijada talaba tomonidan o'z xatosini anglashi, to'g'rilashga bo'lган urinish yuzaga keladi. O'quvchi va jamoa o'rtasida ongli intizomni qaror toptirish ikki tomonlama ta'sir kuchiga egadir. Talaba jamoa doirasida salbiy xususiyatlarini yo'qotish uchun kurashadi, jamoa esa talabadagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etishga o'z ulushini qo'shadi.

Ekologik intizom o'quv ishlariga g'oyat katta ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilarining topshiriqlarni, jamoa qarorlarini bajarish, mashg'ulotlarga kechikmasdan yetib kelish hamda sababsiz dars qoldirmaslik, darsda tartib saqlash kabi holatlar ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini, shuningdek, talabalarning chuqur bilim olishlari uchun imkon yaratadi. SHunday ekan, qaysiki o'quv yurtida o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi intizom qoidalariga qattiq rioxalishga qilsa, o'sha o'quv yurtida o'zlashtirish yuqori darajada bo'ladi, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda yuksak natijalar qo'lga kiritiladi.

O'quvchilarining ongli intizomini qaror toptirishda kundalik hayotiy rejim hamda unga qat'iy amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Qat'iy dars jadvali, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirish va ularni o'tkazish, kundalik faoliyatni aniq rejalashtirish talabaning shaxsiy hayotini muayyan tartibga solishga xizmat qiladi.

O'quvchilarining kundalik hayotiy rejimini ishlab chiqishda mактаб va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari muayyan o'rин egallashi lozim. Ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirayotganda auditoriyadan tashqari ta'lim muassasalari tadbirlar rejasini, darsdan tashqari mashg'ulotlarda esa oliy o'quv yurtlarining tadbirlar rejasini mazmunini inobatga olishi lozim. SHuningdek, ular o'quv-tarbiyaviy tadbirlarni birgalikda o'tkazishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilarni kundalik ekologik rejimini o'z tashabbuslari bilan tuzish va bajarishga o'rgatish muhimdir. U o'zining kundalik rejimini oliy ta'lim muassasasi va undan tashqari muassasalar ish rejasi bilan muvofiqlashtirishga erishishi maqsadga muvofiqdir. Kundalik rejimni tuzish, unga rioya qilish, faoliyat talablariga amal qilish kabilarga ajratiladigan vaqt ni belgilashda ota-onalar, jamoatchilik tashkilotlari va o'qituvchilar ularga yordamlashishlari yaxshi natija beradi.

Jumanova F.U ning olib borgan tajribasi ko'ra, kundalik ekologik rejimga amal qilish faqat organizmning fiziologik quvvatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib qolmay, balki uning intellektual salohiyatini yuksaltirishni yuzaga keltiradi va intizom talablariga ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Ongli ekologik intizom tuyg'usini o'quvchilarda shakllantirish quyidagi faoliyatni tashkil etish asosida kechadi:

- maqsadga muvofiq o'quvchilarning qo'yilishi hamda ular tomonidan ekologik talablrning bajarilishini uzluksiz, doimiy nazorat qilib borish;
- ekologik -axloqiy va ekologik -huquqiy me'yorlar mohiyatini tushuntirish;
- ongli ekologik intizom mezonlaridan biri bo'lgan intizomli xulq, xarakter va iroda sifatlarini hosil qilish maqsadida mashq qildirish va o'rgatish;

O'zgaruvchan miqdorlarga ko'ra to'rt bosqichda tajriba-sinov ishlari tashkil etilgan. Tajribada o'zgaruvchan miqdorlarni oshirib borish usulidan foydalanilgan.

1-bosqich o'zgaruvchan miqdorlarga ko'ra tashkil etilgan. O'quvchilar ekologik madaniyatini shakllantirishda ma'naviy tarbiyaning o'rni bo'yicha o'zgaruvchan miqdorlar doirasida o'tkaziladi. Bu bosqichda taqqoslash maqsadida 2 ta tajriba, 2 ta nazorat sinflari tanlab olinadi. Tajriba va nazorat sinflarida jami 100 nafar o'quvchi ishtirok etgan.

Tajriba-sinov o'rganilgan va endi o'rganilayotgan mavzularning farqini anglash, mavzuga mos dars holatini hosil qilish, o'rganilayotgan mavzuning nazariy va amaliy ahamiyatiga doir kirish suhbat tashkil etildi. Nazorat ishlari o'quvchilarda o'quvchilar ekologik madaniyatini shakllantirishda ma'naviy

tarbiyaning o’rni to’liq o’zlashtirishiga olib keladi, degan ilmiy faraz asosida o’tkaziladi.

Tajriba–sinov ishlarining 2–bosqichi 1–bosqichdan farqli ravishda o’zgaruvchan miqdorlar doirasida o’tkaziladi. Tajriba–sinov ishlarining 2–bosqichida yuqorida keltirilgan o’zgaruvchan miqdorlarga qo’shimcha tarzda quyidagi miqdorlar berilgan:

- 1) rasm, chizma, jadvallar;
- 2) dars topshirig’ida berilgan vazifalar;
- 3) takrorlash usuli;
- 4) o’zlashtirish darajasidagi o’quvchilarni ogohlantirish;
- 5) bahs;
- 6) savolga javob topish;
- 7) qo’shimcha topshiriq tanlash;
- 8) takrorlash.

Tajriba–sinov ishining 3–bosqich tajriba–sinov ishlari 2–bosqichida amal qilingan barcha o’zgaruvchan miqdorlarga qo’shimcha tarzda o’zgaruvchan miqdorlarning ikki xususiyati hisobga olingan:

Yakuniy bosqich tajriba–sinov ishlari davrida o’quvchilar (100 nafar) o’rtasida suhbat, savol-javob va anketa so’rovlari tashkil etildi, ular tomonidan test topshiriqlari bajarildi. O’rganish natijasida quyidagi ko’rsatkichlar qo’lga kiritildi (1- jadval):

### **1-jadval**

O’quvchilarining o’quvchilar ekologik madaniyatini shakllantirishda ma’naviy tarbiyaning o’rni borasidagi bilimlari darjasи

<b>Guruhlar</b>	<b>O’quvchilar soni (nafar)</b>	<i>Bilim, ko’nikma va malakalari darjasи</i>		
		<b>Yuqori</b>	<b>O’rta</b>	<b>Past</b>
Tajriba-sinov guruhi	52	15	17	20

<i>Nazorat guruhi</i>	48	16	15	19
-----------------------	----	----	----	----

Tajriba-sinov ishlarining samaradorligini aniqlash maqsadida dastlabki va yakuniy tajriba natijalarini qiyosiy solishtirish natijasida quyidagi jadvallar hosil qilindi (2 - jadval):

### **2-jadval**

O'quvchilarda o'quvchilar ekologik madaniyatini shakllantirishda ma'nnaviy tarbiyaning o'rni borasidagi bilimlarining dinamik o'sishi

Guruhlar Bosqichlar	<i>Bilim, ko'nikma va malakalari darajasi</i>					
	Tajriba-sinov guruhlari $n_2 = 52$ nafar			<i>Nazorat guruhlari</i> $n_1 = 48$ nafar		
	Yuqori	O'rta	Past	Yuqori	O'rta	Past
Dastlabki tajriba	15	17	20	16	15	19
<i>Yakuniy tajriba</i>	39	9	4	22	16	10

Tajriba-sinov uchun tavsiya etilgan metodikaning samaradorligini dalillar bilan isbotlash maqsadida yakuniy bosqich natijalari tahlil qilindi. Yakuniy bosqich tajribasidan keyin tajriba-sinov guruhida sifat ko'rsatkichlarining o'sishi kuzatilgan.

### **Ikkinci bob bo'yicha xulosa**

Ta'kidlash lozimki, oliy ma'lumotli mutaxasislarning ijtimoiy faolligi ekologik muommalarning hal bo'lishida va o'quvchilar ekologik tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Akademik litsey, kasb hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim tarbiya ishlarining takomillashtirilayotganligi natijasida o'quvchi yoshlarga hozirgi davr ekologik vaziyatning muhim muomalari va ularning yechimiga doir masalalar malakali mutaxasislar tomonidan o'quvchilar

ongiga singdirilayotganligi talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim omilidir.

SHuningdek mamlakat ijtimoiy iqtisodiy hayotini modernizatsiyalash sharoitida Akademik litsey, kasb hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida, maktablarda ta'lif olayotgan talaba yoshlarimiz ekologik vaziyat va atrof muhitni asrash, yoki tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalarining muhimligi bilan yuzma yuz uchrashmoqda. Ular tafakkuriga ekologik madaniyatning muhim xususiyatlari, mazmuni ilmiy metodik, yangi pedagogik texnologiyalar va zamonaviy usullar bilan singdirilmoqda. Ushbu faoliyatga ilmiy xodimlar, mohir pedagoglar, jamoat tashkilotlarining shu jumladan o'quvchilar tashkilotlarining vakillari jalg qilingan. Natijada globallashuv davrida yashayotgan va mehnat qilayotgan yoshlar inson hayoti, faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan tabiat va ijtimoiy muhitning o'zaro aloqadorligini chuqur anglamoqda. Tadqiqotlar natijalari dalolat bermoqdaki, talabalar mintaqaviy va hududiy ekologik muommalarining kelib chiqishining ob'ektiv va sub'ektiv sabablarini tushunmoqdalar.

Mamlakatimiz hududlarida tabiiy resurslardan unumli foydalanish masalalarining yechimida, atmosfera havosning tozaligini saqlash, mineral xom ashyo zahiralarimizning vatanimiz buguni va kelajagi uchun xizmat qilishida jonkuyarlik ishlarini amalga oshirishda o'quvchi yoshlarning o'rni muhimdir. Hozirgi davrda ekologik holatni vujudga keltiruvchi asosiy omillardan biri mavjud mineral xom ashyo resurslari, shu jumladan atmosfera havosi, gaz, neft, suv, yer resurslaridan tejamli foydalanishni tashkil etishdan iborat.

Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning ahamiyati faqat uning tarbiyaviy tomonida emas balki, yurtimizning iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyoti va yuksalishi bilan chambarchas bog'liqligidadir. Ta'kidlash lozimki, globallashuv jarayonida, davlatlar orasida iqtisodiy, madaniy aloqalar kengayib borayotgan bugungi davrda O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati, shu jumladan Markaziy Osiyodagi tutgan o'rni, obro'si muttasil oshib bormoqda. Bunday imkoniyatlarning qo'lga kiritilishida talaba yoshlarimizning ham bevosita hissasi

bor. Mamlakatimizda ekologik muaommalarining yechimini topish uchun urunishlarida, ushbu sohada amalga oshirayotgan tadbirlarida, ekologik muhitni sog'lomlashtirish uchun bajarayotgan amaliy ishlarda o'z ifodasini topmoqda.

## Xulosa


Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davrida ekologik muvozanatni saqlash, atrof muhit himoyasiga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov taklifiga muvofiq 2011 yilning "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinganligi, atrof muhit muhofazasiga, mavjud tabiiy resurslardan yanada unumli foydalanishni, o'quvchilar ekologik madaniyatini shakllantirishni taqozo qiladi. Ekoliya va atrof muhitning himoyasi insoniyat hamda xalqaro hamjamiyat oldida turgan, o'z yechimni kutayotgan muammolar sirasiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi davlat tashkilotlari va mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar ham ekologik muammolar yechimini topish uchun ushbu jarayonda faol ishtirok etmoqda. O'zbekiston ekologik harakati va "Yoshlar qanoti"ning vujudga kelishi va uning samarali faoliyati ham bundan dalolat beradi.

Respublikamizda ekoliya sohasi bo'yicha qonunlarning mazmun mohiyati, amaliy ahamiyati, mavjud uzluksiz ta'lim tizimida samarali vositalar orqali yoshlarimiz ongiga singdirilmoqda. Ta'kidlash lozimki, ekoliyaga oid dolzarb masalalarining mazmunini jamoatchilikga, o'quvchi yoshlarga tushuntirish va atrof muhitda sodir bo'layotgan tahlikali ekologik jarayonlarni izohlashda pedagogik

usullar, omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan fanlarni chuqur o'rganish orqali ma'lum natijalarga erishish mumkin. SHuningdek institutlar, universitetlarda ta'lim olayotgan talabalar mustaqil ishlari jarayonida, ular orasida o'tkazilayotgan tarbiyaviy soatlarda yurtimiz ekologiyasiga oid materiallardan unumli foydalanish imkoniyatlari bor.

## **Ilvalar**

**1-rasm. Ekologiya fanini fanlararo aloqadorlikda o'rganish modeli**



**2-rasm. Amaliy geografiya ta’limi jarayonida o’quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning nazariy modeli**



## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "Adolat", 2010.
2. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi qonuniga sharhlar. -T.: "SHarq", 2011..
3. O'zbekiston Respublikasi "CHiqindilar to'g'risida" gi Qonun, Xalq so'zi, 2002 yil, №93,
4. O'zbekiston Respublikasi "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonun, Xalq so'zi, 2000 yil, №24
5. O'zbekiston Respublikasi "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, Xalq so'zi, 1997 yil, №3.
6. O'zbekiston Respublikasi "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" qonuni. T.; Adolat, 1993.
7. O'zbekiston Respublikasi "Er to'g'risida" qonuni, T.; Adolat, 1993.
8. O'zbekiston Respublikasi "Alohida muhofaza qilinadigan hududlar to'g'risidagi" qonuni. T.; Adolat, 1993.

### **II. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari**

9. 2009 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2010 yilda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari to'g'risida. Xalq so'zi. №33. 2010 yil.

### **III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalar**

10. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: O'zbekiston , 2005 yil.
11. Karimov I.A. O'zbekiston siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.: O'zbekiston; 1995 yil.
12. Karimov I.A. O'Zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'lli. - T.: O'zbekiston, 1999 yil.
13. Karimov I.A. Demokratik xuquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish-farovon hayotimiz garovidir". T.: O'zbekiston, 2007 yil.

14. Karimov I.A. “Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqoralik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi”. T.: O’zbekiston, 2010 yil.
15. Karimov I.A. “Asosiy vazifamiz Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir”. T.: O’zbekiston, 2010 yil.
16. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. T.; O’zbekiston, 2008 yil.

#### **IV. O’zbekiston Respublikasi vazirliklari me’yoriy-huquqiy hujjatlari**

17. O’zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. Tahrir hay’ati: Pratov O’ktam A.SH., Alixonov B.B.. va boshqalar umumiyligi tahriri ostida; tuzuvchilar: Beloshpov I.V., va b. – T.: CHinor ENK, 2008 yil.
18. O’zbekiston Respublikasida atrof muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishning holati to’g’risida milliy ma’ruza.T.; CHinor YeNK, 2010.

#### **V. Darsliklar.**

O’zbekiston Respublikasida chop etilgan

19. Abdullaev A.M., Hakimov N.H., Ishmuxamedova L.A. Ekonomika prirodopolbozovaniya. Uchebnoe posobie. T., TDIU, 2009.
20. Hakimov N.H., Abirkulov Q.N., Islomov A, Atrof muhit muxofaza qilish. Darslik. TDIU. 2009.

21. Ergashev A, Ergashev T. Agroekologiya. T.; Yangi asr avlod., 2006.

#### **VI.O’quv qo’llanmalar**

22. Tolipov T. Ekologiyaning dolzarb muammolari. Qarshi.: Nasaf, 2003.
23. Xojimatov A.N. Ekologiya monitoringi. O’quv qo’llanma.T., TDIU, 2008.
24. Hakimov N.H, Abdulqosimov A.V., Hamdamov SH.R. Ijtimoiy Ekologiya. O’quv qo’llanma. T.; TDIU, 2007.

#### **VII. Ilmiy monografiyalar, maqolalar**

25. Abdieva O. Ekologik faoliyatda ijodiy mustaqillik //Xalq ta’limi j., 1997. 3-son. - 91–93 b.
26. Abdullaeva T. Milliy iftixor hissini tarbiyalash //Boshlang’ich ta’lim., 2002. 4-son. – 12–15 b.

27. Abdurahimov Q. Ekologik bilimlar amaliyotida //Xalq ta’limi j., 2001. 2-son. – 99–103 b.
28. Avesto va uning insoniyat taraqqiyotidagi o’rni. – T.: Fan, 2001. – 19 b.
29. Boboev X., G’ofurov Z. O’zbekistonda siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy ta’limotlar taraqqiyoti. - T.: Yangi asr avlodi, 2001. - 141-144 b.
30. Bo’riev O. Al-Farg’oniy va uning ilmiy meros. – T.: O’zbekiston, 1998. - 67 b.
31. Ziyomuhhammadov B. Ekologiya va ma’naviyat. - T.: Mehnat, 1997. - 104 b.
32. 31.Zunnunov A., Xayrullaev M. Pedagogika tarixi.– T.: SHarq, 2000. - 240 b.
33. Irisov A. Abu Rayhon Beruniy. 100 hikmat. Ibratli so’zlar. – T.: Fan, 1993. - 24 b.
34. Yo’ldoshev J.G’., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari /Qo’llanma. – T.: O’qituvchi, 2004. – 104 b.
35. Madrahimov A.S. Ibn Sino shifobaxsh o’simliklar haqida. – T.: Mehnat, 1994. - 80 b.
36. Maxmudov R.Yu. Ekologiyadan ma’lumotnoma. – T.: Fan, 1997. – 39 b.
37. Ma’naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999. – 392 b.
38. Murodov M., Hakimov N., Ergashev A. Qadriyatnoma.– T.: G’.G’ulom nashriyoti, 2001. – 544 b.
39. Rasulov M. Markaziy Osiyo tabiatshunoslik fanlari tarixi. – T.: O’qituvchi, 1993. – 73 b.
40. Roziqov K.X. Muhit va inson ekologiyasining muammolari. – T.: O’zbekiston, 1993. – 32 b.
41. Seytmuratova R. Ekologik bilim va tarbiya //Boshlang’ich ta’lim j., 1992. 1-son. - 57 b.
42. Turdikulov E.O. O’quvchilarda umumbashariy ekologik dunyoqarashni shakllantirish.Toshkent, SHarq, 2011,- 159 ,b.

### **VIII. Doktorlik, nomzodlik va magistrlik dessertatsiyalari**

43. Jumaeva U.F. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish (geografiya ta'lifi misolida): nomz.diss. avtorefarat. Toshkent. 2010. –10-12 b.
44. Ashurova N. Qishloq maktablari 3-4 sinf o'quvchilarini ekologik tarbiyalash: Ped.fan.nomz ... diss. avtoref. – T.: 1995. – 18 b.
45. Beranova P.O'. Qoraqalpoq oilalarida bolalarning ekologik madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari (o'smirlar misolida): Ped.fan.nomz. ... diss. – T.: 2005. – 130 b.
46. Mirzaaxmedova SH.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga bo'lgan qiziqishni shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped. fanl, nomz. ... diss. avtoref. – T.: 2006. – 22 b.
47. Sattarov V. Umumiy o'rta ta'lif muktablarida V-IX sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish (qishloq xo'jalik mehnati ta'lifi misolida): Ped.fanl.nomz. ... diss. avtoref. – T.: 2002. – 22 b
48. Mirzaaxmedova SH.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga bo'lgan qiziqishni shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped. fanl, nomz. ... diss. avtoref. – T.: 2006. – 22 b.
49. Murodov M., Hakimov N., Ergashev A. Qadriyatnoma.– T.: G'.G'ulom nashriyoti, 2001. – 544 b.
50. Nishanova N.O'. Umumiy o'rta ta'lif muktab o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish (adabiy ta'lif misolida): Avtoref.diss. ... ped.fanl.nomz. – T.: 2001. – 21 b.

#### **IX. Ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruza to'plamlari**

51. Xakimov N.X. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot va ekologiya. -T.: TDIU, 2006. - 94 b.

#### **X. Gazeta va jurnallar**

52. «Ekologiya xabarnomasi» journali: 2010-2011 yillardagi sonlarining onlayn versiyasi.
53. Mamanazarov M. Ekologik havsizlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari. Ekologiya xabarnomasi. 2009 yil. №3
54. Ekologik monitoring va ekologik ekspertiza. Xo'jalik va huquq. 2009 yil. №8

55. Djuraev R.X., Turdiqulov E.O. Umumiy o’rta ta’lim mакtablarida uzlusiz ekologik ta’lim mazmuni va ularning asosiy yo’nalishlari //j., 2005. 1-son. – 61–85 b.
56. Jo’raev R.X., Safarova R.A., Ibragimov X.I. Pedagogika fani Kontseptsiyasi //Xalq ta’limi j., 2004. 5-son. - 8–33 b.
57. Nikitin V. Osnovnye problemy ekologii v Uzbekistane i prioritety ekologicheskoy politiki. Ekologicheskiy vestnik. 2005 god. №2.
58. Beranova P.O’. Xalq og’zaki ijodida ekologik madaniyat //Xalq ta’limi j., 2001. 2-son. – 37–40 b.

#### **XI. Statistik ma’lumotlar to’plamlari**

59. Natsionalьnyu doklad. O sostoyanii okrujajuщеу sredi i ispolъzovanii prirodnyx resursov v Respublike Uzbekistan CHinar ENK, 2009.

#### **XII. Virtual kutubxona elektron darsliklari va o’quv qo’llanmalari**

60. Jizzax Davlat Pedagogika instituti «Pedagogika va psixologiya » kafedrasining ma’ruza matnlari. 2009– 2011yillar.

#### **XIII. Internet saytlari**

61. <http://ecoinform.freenet.uz>
62. E-mail: [ecolog@freenet.uz](mailto:ecolog@freenet.uz)
63. <http://www.ecsocman.edu.ru/db/msg/150966.html>